

MUNDARIJA

KIRISH	8
I BOB.FRAZEOLOGIK TIZIM VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI	11
1.1. Frazeologizmlarning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi....	11
1.2. O‘zbek tilida iboralarning leksik variantlanishi.....	20
1.3. O‘zbek tilidagi milliy xarakterdagi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari.....	26
Bobga doir xulosalar.....	36
II. BOB. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISH ASOSLARI	38
2.1. Bugungi kunda iboralar bilan bog‘liq ba’zi dolzarb muammolar.....	38
2.2. Raqam frazeologizmlarning semantik xususiyatlari	43
2.3. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan mualliflik frazeologizmlari.....	51
Bobga doir xulosalar	57
III. BOB. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI O‘RNI	59
3.1. O‘zbek leksikografiyasida frazeologizmlarning o‘rni.....	59
3.2. Leksikografik manbalarda frazeologizmlarning talqini.....	67
Bobga doir xulosalar.....	72
UMUMIY XULOSA.....	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	78

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Bugungi kunda frazeologizmlarni har tomonlama o'rganish bo'yicha ko'pgina tadqiqot ishlari bajarilayotganini kuzatish mumkin. Masalan, grammatik, semantik, stilistik, lingvokulturologik hamda boshqalar. Frazeologik birliklar ikki va undan ortiq birlikdan tashkil topgan, tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lgan, ko'chma ma'no bildiruvchi, barqaror birikma sifatida tilning boshqa birliklaridan ajralib turadi. Frazeologizmlar tilning lug'aviy boyligini tashkil qiladi. Shunga ko'ra frazeologizmlarni tadqiq etish jarayonida ushbu birlikning turli jihatlari yoritib berilgan. Biroq, frazeologik birliklarning paydo bo'lishi, semantikasi, etimologiyasi, lug'atlardagi o'rni hamda til ichki tizimiga xos bo'lgan shakllanish bosqichlari etarlicha darajada o'rganilmagan.

Frazeologizm va so'z o'rtasidagi muhim farqli tomonlar ularning semantikasida aks etadi. Qachonki frazeologizmlarning ma'nosini to'g'ri anglansagina uni o'rinli qo'llash mumkin. Shu sababli frazeologizmlarda semantika muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga frazeologizmlarni faqatgina nazariy jihatiga ko'ra emas, amaliy tomonlama ham chuqur o'rganish imkonini beruish uchun frazeologik lug'atlar zaruriy manba hisoblanadi. Shunga ko'ra frazeografiya xususiyatlarini tadqiq etish bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Shunday qilib tadqiqot dolzarbligi frazeologizmlarning semantik shakllanishi hamda leksikografik xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan talabning etarlicha o'rganilmaganligidir. Frazemalar tilimizning lug'at boyligini oshiradi va uni o'rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek tilidagi frazeologizmlar tanlandi.

Tadqiqot predmeti. Frazeologizmlar ma'nolarining kelib chiqishi va lug'atlarda frazeologik birliklarning talqini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi: o‘zbek tili frazeologizmlarining semantik va leksikografik xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

- o‘zbek tilidagi frazeologik ma’noning kelib chiqish etimologiyasini o‘rganish;
- frazeologik birliklarning semantik shakllanish jarayonlarini tahlil qilish;
- frazeografiya sohasida bajarilgan ishlarni qiyosiy jihatdan yoritish;
- frazemalarning leksikografik manbalardagi talqini bilan tanishish.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi.

- leksik variantlanish hodisasining frazeologik sinonimiyadan farqli tomonlari tahlil qilindi va misollar bilan asoslandi;
- frazeologizmlarning xalqimiz madaniyatini aks ettirishi, urf-odatlarini, tarixi, turmush tarzi bilan bog‘liqligi aniqlandi;
- frazemalarda raqamlarning ifodalanishi bilan bog‘liq bir qancha mazmuniy xususiyatlari ochiqlandi;
- badiiy asarlardagi umumxalq tiliga xos va individual frazeologik birliklar aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ilmiy tadqiqot ishida frazeologizmlarning semantik jihatlari o‘rganildi, badiiy adabiyotlarda berilishi bilan tanishildi, frazeografik xususiyatlari yoritildi va frazeologizmlar to‘g‘risida aniq xulosalar berildi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi: Jahon va o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, lekin frazeologizmlar alohida yo‘nalish sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Shu tufayli biz tadqiqot ishimizda jahon tilshunoslari Sharll Balli, rus rus tilshunosi V.V.Vinogradov, Ferdinand de Sossyur, o‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayevning o‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati, A.Mamatovning “O‘zbek tili frazeologiyasi”, B.Yo‘ldoshev “Frazeologik uslubiyat asoslari” hamda O‘zbek tilining 5 tomlik izohli lug‘atidan, yangi “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dan, , XI-

XVIII asrlarda yaratilgan leksikografik asarlardan. Xususan, “Devonu lug‘otit-turk”, “Abushqa” va boshqa frazeologiyaga oid asarlar, dissertatsiya, monografiyalardan foydalanildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi: dissertatsiyada qiyosiy, kross-madaniy(kultur), etimologik, semantik, tarixiy, tahlil, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:

frazeologizmlarni nazariy hamda amaliy ahamiyatini o‘rganish muhim hisoblanadi. Ushbu ish frazeologiya sohasida kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan tadqiqotlarga fundamental manba bo‘lib xizmat qiladi;

bajarilgan tadqiqot natijasida o‘zbek tilidagi frazeologik lug‘atlar yanada yangi manbalar bilan boyishi hamda badiiy asarlarda qo‘llanilgan muallif frazeologizmlarga oid yangicha lug‘at ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Magistrlik ishi tuzilishi va hajmi. Mazkur Magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 bob, 8 fasl, bob bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi **74** sahifadan iborat.

I BOB. FRAZEOLOGIK TIZIM VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI

1.1. Frazeologizmlarning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi ko‘pgina imkoniyatlar eshigini ochdi, xalqimizning turmush tarzi, milliy-madaniy hayotiga ulkan ijobiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Istiqloq sharofati bilan unutilgan milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning hayoti darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga chiqarish uchun keng miqyosda ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar ichida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlab qolish, yosh avlodni vatanparvarlik tuyg‘ulari asosida tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlar eng muhimi hisblanadi. Bejizga Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Yangi o‘zbekiston strategiyasi”da “Biz taqdim etayotgan strategiyaning maqsadi milliy o‘ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o‘tgan an‘analarimizni, iymon-e‘tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgandir”¹ degan g‘oyani ilgari surmayapti.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda yurtimizning madaniyatini yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi kelajagini yaratish, ma‘naviyatimizning asosi hisoblangan adabiy tilimizni boyitish, ta‘lim jarayonida yoshlarimiz ongiga milliy o‘zligimizni singdirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Har qanday til o‘z ichki va tashqi imkoniyatlari asosida doimo boyib boradi. Tilning ichki tomonlama boyishida frazeologizmlarning ham o‘rni bor. Bu haqida I.V.Arnold quyidagi fikrni bildirib o‘tadi: “Har qanday tilning boyishi faqat yangi so‘zlar yasalishi hisobiga emas, balki turg‘un birikmalarning ortib borishi hisobiga ham sodir bo‘ladi”².

Hozirgi kunda so‘zning leksik, grammatik, semantik jihatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da frazeologiya sohasida bunday deya olmaymiz, frazeologik birliklarni tilning

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 275.

² Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М: Высшая школа, 1969. – С. 187.

uzviy ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqish, frazeologiyaning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini, semantik va leksikografik xususiyatlarini mukammal o‘rganib chiqishni taqozo etadi. Frazeologizmlar haqida fikr yuritilar ekan, avvalo, uning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratsak. Frazeologiya yunoncha so‘z bo‘lib, “phrasis” - ibora, “logos” - ta’limot, ya’ni “iboralar haqidagi ta’limot” degan ma’noni anglatadi. Rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologizmlarning o‘rganilishi yuzasidan o‘z fikrlarini bayon qilar ekan, shunday deydi: “Frazeologiya termini dunyo tilshunosligida 1558-yil ingliz adabiyotshunosi Neander tomonidan ilk marta qo‘llangan”. Yana bir boshqa manbada keltirilishicha bu atama ilk bor 1928-yilda Y.D.Polivanov tomonidan qo‘llanilgan deyiladi: “Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo‘lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni “frazeologiya” degan termini qo‘llashni lozim topdim”³. “Frazeologizm – bu tuzilishi jihatdan so‘z birikmasiga yoki gapga teng bo‘lgan, umumlashgan ma’no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, turg‘un leksik-semantik birlikdir”⁴.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, frazeologiya bo‘yicha ko‘plab tilshunoslar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Xususan, jahon tilshunosligida frazeologiya nazariyasiga dastlab shveysar-fransuz tilshunosi Sh.Balli (1865-1947) asos soldi, u tashqi belgiga nisbatan ichki belgi ahamiyatli va eng qimmatli ekanligini isbotladi va frazeologik birikmalarning tashqi va ichki belgilarining bir-biridan farqini ajratib ko‘rsatib berdi. Bu nazariya frazeologiyani yanada keng tadqiq qilish va uning tilshunoslikning alohida fan sohasi bo‘lib shakllanishida muhim ta’sir ko‘rsatdi. Sharil Balli o‘zining “Stilistika ocherki” (1905) asarida so‘z birikmalarining besh turini farqlab ko‘rsatib bergan. U yana bir asari: “Fransuz stilistikasi” (1909) sida odatiy va frazeologik birliklar qatorini erkin birikmalar va frazeologik birliklarning tarkibiy

³ Umarxo‘jaev M.E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. – Andijon: ADTPI, 2010. – B. 55.

⁴ Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент:1991. – Б. 207-272; Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке. АДД. – Ташкент: 1991. – С. 40-47.

qismi sifatida talqin etgan. Sharll Balli ushbu asarlariga frazeologizmlarni o'rganish bo'yicha maxsus boblar kiritgan. Shuningdek, Ferdinand de Sossyur ham frazeologiya haqida o'z nazariyasini bildirdi. U "Umumiy tilshunoslik kursi" (1916) asarida sintagma va uning belgilari haqida fikr yuritarkan, – "Tilda shunday tayyor birikmalar borki, ularning uzual xarakteri ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni tayyorgarliksiz qo'llash mumkin emas, chunki bunday birikmalar tayyor holda an'anaga ko'ra qo'llanadi", - deb aytgan edi.

Taniqli frazeologshunos A.Mamatov tilshunoslikda frazeologiya fanining ilmiy-amaliy o'rganilish tarixini uch davrga ajratadi:

Birinchi davr: M.V.Lomonosov, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, F.I.Buslayev, V.I.Dal, Sh.Balli, A.A.Shaxmatovlarning ilmiy faoliyatlari bilan bog'lanib, ular frazeologik birliklarni lug'atlarda aks ettirish (klassifikatsiyalash), ularning ma'nosi va etimologiyasini izohlashga e'tibor qaratganlar. Bu davrda frazeologik birliklar lug'atshunoslik obyekti bo'lgan.

Ikkinchi davr: XX asrning 30-50-yillarini o'z ichiga olib, bu davrda Y.D.Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K.Danelov, G.O.Vinokur, V.N.Derjavin, A.Efimovlarning ilmiy faoliyati asosida frazeologiya mustaqil lingvistik soha sifatida ilmiy tadqiq etila boshlandi.

Uchinchi davr: frazeologizmlarni tadqiq etishning eng mahsuldor davri bo'lib, ayni shu davrda frazeologik nazariyalar, ilmiy tadqiq etishning yangi metodlari yaratildi va shu asosda frazeologizmlar ilmiy tadqiq etilmoqda. Bu davr XX asrning 60-yillaridan boshlanib hozirgi kungacha davom etib kelmoqda⁵.

Rus tilshunosligida ham bu soha tadqiqiga bag'ishlab ko'pgina ishlar amalga oshirilgan, o'tgan asrning 20-yillaridayoq frazeologizmlar tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida o'rganila boshlandi, jumladan, ilk bor E.D.Polivanov frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo'limi ekanligini asoslab bergan edi. U "kelajakda frazeologiya ham tilshunoslik

⁵ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 27.

adabiyotidan o‘rin olishi zarur”, - deb yozgan edi⁶. Professor A.V.Kuning yozishicha: “Frazeologiya – bu frazeologik birliklar haqidagi fan, ya’ni o‘zgaruvchan birikmalarning tarkibiy-semantik modellarini yaratish orqali yaratilmaydigan murakkab semantik so‘zlarning barqaror birikmalari haqida”.

Ayniqsa, rus tilshunosligida frazeologizmlarning rivojlanishida V.V.Vinogradovning hissasi katta bo‘lgan. U frazeologik tadqiqotlari davomida frazeologizmlarning nazariy va amaliy jihatlariga katta e’tibor bergan. Shuningdek, u frazeologik ma’noning o‘ziga xos xususiyatlari, frazeologizmlarning grammatik tabiati, frazeologizm va so‘zlarning o‘zaro nisbati va ularning tasnifini ishlab chiqqani V.V.Vinogradovning ilmiy tadqiqotlari frazeologizmlarning mustaqil til birligi sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Uning ilmiy ishlari nafaqat rus tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham bu sohaning jadallashuviga turtki bo‘lib xizmat qilgan. U frazeologizmlarga quyidagicha ta’rif bergan: “Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati ularning shakl jihatdan barqarorligida bo‘lib, ular nutq jarayonida paydo bo‘lmay, balki, inson ongida tayyor holda shakllanadi va kamida ikkita mustaqil so‘zning yaxlit ma’no anglatishidan yuzaga keladi”⁷.

V.V.Vinogradov frazeologizmlarni tadqiq qilar ekan frazeologik ma’noning o‘ziga xos xususiyati, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarga bo‘linishi, grammatik tabiati va sintaktikasiga alohida e’tibor qaratadi.

V.V.Vinogradov frazeologizmlarning leksik-semantik tasnifini yaratgan. Ushbu tasnifga ko‘ra u frazeologizmlarni uchta katta guruhga bo‘ladi:

1. Frazeologik chatishma yoki idioma. Bu guruhga ma’no tomondan qismlarga ajralmaydigan, ma’lum bir obraz hosil qiladigan, umumiy holda birikmani tashkil etadigan iboralar kiradi. Masalan, *tuyaning dumi yerga tekkanda, toshbaqa tog‘ga chiqqanda* kabi.

⁶ Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – М.: – С. 61.

⁷ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва, 1977. – С. 118-139.

2. Frazeologik butunlik. Bunda umumiy tarzda ko‘chma ma’no hosil qiladigan, yaxlit ma’no ifodalovchi, ibora tarkibidagi so‘zlar ma’nolarning birlashuvidan kelib chiqadi. Misol uchun: *ignaning ustida o‘tirmoq, ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushmoq.*

3. Frazeologik qo‘shilma. Bu guruhda ko‘chimning bitta so‘z asosiga qurilishi va boshqa so‘zlarning birikib ma’lum bir frazeologik ma’no hosil bo‘lishidir: *gapning po‘st kallasini aytmoq, ovozi o‘chirib qo‘ymoq.*

Bu tasnif bir qancha tillarga tarjima qilinib, tilshunoslikda keng qo‘llanildi. Jumladan, N.M.Shanskiy ushbu tasnifdan foydalanib frazeologizmlarning to‘rtinchi turini *frazeologik ifoda* (frazeologik ibora) deb qo‘shib qo‘yadi.

V.Vinogradovning rus tili frazeologizmlari asosida yaratilgan semantik klassifikatsiyasi ko‘plab tillardagi turg‘un birikmalar tasnifini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Aniqroq aytganda, olim yaratgan klassifikatsiya vositasida frazeologizmlarning boshqa tillarda ham uch guruhi mavjudligi isbotlandi⁸. V.V.Vinogradovning frazeologik birliklar haqidagi ishlari natijasida ko‘plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, lug‘atlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Keyingi yillarda frazeologizmlarni tadqiq etishning turli xil usullari paydo bo‘ldi. Bu narsa frazeologizmlarni o‘rganishning yanada jadallashishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug‘atini tuzgan va unga so‘zlar bilan birgalikda “xalq maqollari”, “frazeslar” va “idiomatizmlar”ni kiritgan edi.

O‘sha paytlarda frazeologik birliklar chet el tilshunosligida ham, boshqa xalqlar tilshunosligida ham o‘rganilgan bo‘lsa-da, biroq frazeologizmlarning faqatgina tasnifiga e’tibor qaratilgan, xolos. Bu to‘g‘risida B.A.Larin o‘zining asarida shunday yozib qoldirgan: “Frazeologiya lingvistik soha sifatida hali e’tiborsiz taraqqiyot bosqichini boshdan kechirmoqda”. Y.D.Polivanov esa quyidagi fikrlarni bayon etgan edi: “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning alohida bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda”. Keyinchalik

⁸ Смирнитский А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1956. – С. 260.

yirik rus tilshunoslari frazeologiya sohasini mustaqil lingvistik fan sifatida ajratib ko'rsata boshlashdi. Frazeologik birliklarning ham amaliy ham nazariy jihatlarini ochib beruvchi ko'plab tadqiqotlar qilindi, monografiyalar, maqolalar nashr etildi, frazeologik lug'atlar tuzib chiqildi. N.M.Shanskiy, Y.A.Bistrova va T.Aliqulovlar hamkorlikda yaratgan "Rus tilidagi 700 frazeologik ibora" lug'ati frazeologizmlarni amaliy tomonlama o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qildi. N.M. Shanskiy, O.S.Axmanova, V.L.Arjangiliskiy, Y.A.Gvozdarev, A.G.Nazaryan, S.Royzenzon, Y.Y.Avaliani, A.Bushuy kabi rus tilshunoslari frazeologizmlarning tadqiqi masalasida samarali tadqiqotlar olib bordilar⁹.

Ushbu olimlar tomonidan frazeologik birliklarning morfologik va leksik xususiyati, gapdagi sintaktik vazifasi, stilistikasi o'rganildi, qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilindi hamda frazeologiyaga oid darslik va o'quv qo'llanmalari, lug'atlar ishlab chiqildi. Frazeologik birliklar turli jihatdan tadqiq qilindi. Jumladan, frazeologizmlarning o'zaro ma'no tomonini V.P.Jukov, N.M.Shanskiy, A.M.Melerovich, V.A.Yaselenko o'rgandi, frazeologik birliklarning morfologik tuzilishi va paradigmasini A.M.Chepasova, A.V.Jukov, L.V.Semenkova, V.N.Grishanovalar tadqiq qildi.

Jahon tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilishi o'zbek tilshunosligida bu sohaning taraqqiy etishida muhim nazariy hamda amaliy manba bo'lib xizmat qildi. Dastlab bu soha o'zbek tilshunosligida XX asrning 50-yillarida o'rganila boshlangan deyiladi.

Frazeologizmlar dastlab lug'atshunoslikda qo'llanilgan, hali ular alohida o'rganilmagan. Keyinchalik olimlarimiz tomonidan ilmiy tadqiq qilinib, frazeologizmlar mustaqil soha bo'lib shakllantirildi. Bu jarayonda albatta, leksikografiya turtki bo'lib xizmat qilgan. Frazeologiyaning o'zbek tilshunosligida paydo bo'lishi va rivojlanishi bevosita filologiya fanlari doktori, professor Shavkat Rahmatullayev nomi bilan bog'liq. U birinchilardan bo'lib frazeologik birliklar

⁹ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 20.

haqida bir qator tadqiqotlar olib bordi va o‘zining “Hozirgi o‘zbek tilida obrazli fe’li frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari” nomli monografiyasini 1952-yilda e’lon qildi. Shundan so‘ng u mazkur sohadagi ilmiy-tadqiqot ishini davom ettirib frazeologik birliklarning grammatik, semantik, leksik xususiyatlariga bag‘ishlab bir qancha maqolalar, monografiya, o‘quv qo‘llanmalar yozdi. Jumladan, “Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi o‘zlashgan frazeologik birliklar haqida” (1957), “Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar grammatik qurilishining o‘zgarishi haqida” (1963), “Fe’l frazeologik birliklarda moslashuv” (1964), “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari”, “Nutqimiz ko‘rki” (1970), kabi asarlari frazeologik birliklarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Sh.Rahmatullayevning frazeologik lug‘at ishini davom ettirgan bir qancha olimlarimiz mavjud bular: M.Sodiqovanning “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha barqaror iboralar lug‘ati” (1994), M.Sattorning “O‘zbekning gapi qiziq” (1994), B.Yo‘ldoshev, K.Bozorboyevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (so‘zlik, 1998), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning “Ma’nolar maxzani” (2001) singari leksikografik asarlar shular sirasiga kiradi.

Rahmatullayevning yana bir buyuk ishini qayd etib o‘tish lozimki, u ilk bor 1964-yilda “O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘atini” yaratdi. Bu lug‘at tilshunoslar uchun frazeologik birliklarni o‘rganishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. Sh.Rahmatullayev lug‘at ishini davom ettirib 1978-yilda “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”ni nashrdan chiqardi. 1992-yilda ushbu izohli lug‘atning qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri chop etildi. Lug‘atda frazeologik birliklarning ma’no tomonlari izohlangan, shuningdek, iboralarning sinonimlari, variantdoshliklari chiroyli misollar bilan birga talqin qilingan. Shavkat Rahmatullayevning bu ishlari uni haqli tarzda o‘zbek frazeologizmi asoschisi maqomiga ko‘tardi.

Shavkat Rahmatullayevdan tashqari A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, A.Rafiyev, A.G‘ulomov, Sh.Usmanova va boshqa bir qator olimlar tomonidan frazeologizmlar tadqiq qilindi. Frazeologik birliklarning funksional-uslubiy, uzual va okkazional

vazifalari, matndagi pragmatik imkoniyatlari B.Yo‘ldoshev hamda U. Rashidovaning (PhD) tadqiqotlarida o‘rganilgan¹⁰. Xususan, Abdug‘ofur Mamatov frazeologizmlarning o‘ziga xos murakkab shakllanish jarayonlari, lisoniy va nolisoniy omillari, so‘zlarning frazeologik birliklarni ifodaviy va mazmuniy shakllanishidagi o‘rni, frazeologizmlarning semantik, leksik-semantik transformatsiyasi semantik-pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish va uni o‘quv jarayoniga tatbiq etgan¹¹. Shu bilan birgalikda u frazeologik birliklarning umumnazariy asoslari, frazeologik birliklar shakllanishida so‘zlarning o‘rni, qo‘llanilish doirasi va imkoniyatlari, leksik-semantik transformatsiyalanish va spontan ma’nolarning shakllanishi, frazeologik birliklarning semantik, grammatik va vazifaviy ko‘chishi, muayyan sohaga xosligiga ko‘ra guruhlariga bo‘linishini tasnif qilib o‘rgangan olim hisoblanadi.

A.Mamatovning frazeologizmlarga bag‘ishlangan o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi oliy o‘quv yurtlarining xorijiy filologiya, boshlang‘ich ta‘lim fakultetlarida o‘qitiladigan hozirgi o‘zbek adabiy tili predmetining frazeologiya bo‘limini yoritishga, to‘plangan til materiallari esa o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, lug‘atlar tuzish uchun xizmat qiladi.

Frazemalarining semantik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan ko‘plab ishlar ham frazeologizmlarning o‘rganilishida beqiyos asos bo‘lib xizmat qilyapti. Frazeologizmlar tarkibidagi har bir so‘z turli darajada bo‘lsa-da o‘z ma‘no mustaqilligiga ega. Biroq, frazeologik ma‘noning hosil bo‘lishida ishtirok etgan so‘zlarda biri asosiy tayanch hamda asos valkifasini bajaradi. Tilshunos olimlar ham bu borada o‘z mulohazalarni aytib o‘tishgan. Jumladan, V.V.Vinogradov «frazemalarning noaniqlik, yopiqlik, shuningdek, so‘z (komponentlarining nomustaqilligi turli frazemalarda har xil bo‘ladi» deb fikr bildirsa¹², A.I.Smirnitskiy “komponentlarini leksema deb atash, ammo ularni o‘ziga xos holda qo‘llash zarur”

¹⁰ Mamatov A. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 21.

¹¹ Mamatov A. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 21

¹² Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова // Вопр. яз-я. –1953. №5. – С. 21.

deya ta'kidlaydi¹³. A.V.Kunin esa komponentlar o'zlarining so'zlik xususiyati bilan farqlanishini¹⁴ qayd etadi. Sh.Rahmatullayevning fikrcha, "komponentlar o'zlarining xususiy ma'nolarini saqlab qolsa-da, ularni tayanch va notayanch a'zo sifatida talqin qilish zarur"¹⁵ligini, M.Umarxo'jayev "komponentlar semantik "kuchsizlansa-da ular leksemalardir"¹⁶ degan fikrlarni bildirib o'tadilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining frazeologik birliklarini har tomonlama tadqiq qilish bu sohaning grammatik, stilistik, semantik-struktur tiplarini o'rganishga imkoniyat yaratadi. Frazeologik birliklarning ma'no, stilistik, grammatik-semantik xususiyatlari prof. Sh.Rahmatullayev, A.Rafiyev, A.Mamatov, Q.Xakimov, Sh.Almamatova, U.Rashidovalarning tadqiqotlarida bayon etilgan. Sh.Balli frazeologik semantikani ularning mutlaq belgisi deb e'tirof etib quyidagi fikrlarni bayon qilgan: "Frazeologik birliklar leksik-semantik, grammatik, sintaktik jihatdan yaxlit birliklardir".

Sh.Rahmatullayev turg'un birikmalar haqidagi mulohazasida "komponentlar o'zlarining so'z sifatidagi ma'nolarini muayyan ma'noda yo'qotishi va frazemadan umumlashgan ma'no yuzaga chiqishini e'tirof etadi. Shu bilan birga komponentlarning frazemalarning ma'no shakllanishi va ma'no taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini va frazemalar, avvalo, semantik hodisa ekanligini ta'kidlaydi"¹⁷. Sh.Usmanovanning aytishi bo'yicha esa "frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologik fondida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy, ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy sterotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan avlodga uzatiladi"¹⁸.

¹³ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Наука, 1956. – С. 207.

¹⁴ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Наука, 1981. – С. 71.

¹⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. —Тошкент: Фан, 1986. – Б. 6.

¹⁶ Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент, 1983. -С. 27-40.

¹⁷ Рахматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлилининг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1986. -№ 3. – Б.16-21.

¹⁸ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 90.

Umuman olganda, frazeologiya sohasida ko‘plab ishlar yaratilgan: Ilmiy asarlar, monografiyalar, turli xil tadqiqotlar, dissertatsiya ishlari qilingan, lug‘atlar tuzib chiqilgan bo‘lsa-da, biroq butunlay barcha ishlar amalga oshirilib yakunlangan deya olmaymiz. Hali oldinda bu sohada bajarilmagan ishla talaygina. Frazemalarining ma’nosini o‘rganish orqali ularning turli xil xususiyatlari namoyon bo‘ladi, ular so‘zlardan tashkil topadi, tilda tayyor holda qo‘llaniladi, nutqda boshqa gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishadi, shuningdek, grammatik shakllangan bo‘ladi. Shu ma’noda frazeologik birliklar shaxsning ichki kechinmalari, psixologik holati, voqea va hodisalarga obrazli munosabatini ifodalaydigan til hodisasidir. Frazelogizmlarning semantikasi uning muhim asosi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot frazeologizmlarning ma’no tomonini, uning xususiyatlarini, ma’nosini tashkil etgan so‘zlarning tarkibini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

1.2. O‘zbek tili iboralarida leksik variantlanish hodisasi xususida.

Tilning so‘z xazinasini nutqiy ifodalilikning o‘ziga xos asosiy va birlamchi manbalaridan biridir. So‘zlanayotgan nutq tinglovchi yoki o‘quvchiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi uchun u ham shakl jihatidan, ham mazmun jihatidan diqqatni o‘ziga jalb eta oladigan bo‘lishi kerak. Tilda nutq ifodaliligini ta’minlovchi vositalar juda ko‘p va xilma-xildir. Maqollar, hikmatli so‘zlar, turli ko‘chim va iboralarni qo‘llash orqali nutqimizni jozibali va tushunarli qilishimiz mumkin. Bu kabi vositalardan etarlicha xabardor bo‘lish nutq tuzuvchi nutqining ifodalilik sifatini yanada oshiradi.

So‘zlovchi shaxs nutqida tilning lug‘at boyligidagi so‘zlarning o‘rniga frazeologik iboralarni qo‘llasa, ekspressivlikka, obrazlilikka erishgan bo‘ladi. Bunday turg‘un birikmalar o‘z ma’nodoshlari bo‘lgan so‘zlarga qaraganda, ma’noni kuchli darajada ifodalaydi hamda obrazlilikni yorqin tarzda aks etadi¹⁹. Frazelogik iboralar turmushdagi turli voqea va hodisalarga guvoh bo‘lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq

¹⁹ Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. 11-sinf darslik. – Toshkent: 2018. – B. 77.

xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta’minlashda betakror vositalardir. So‘z san’atining ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalanadilar.

So‘zlarning sinonimlari va turli xil ifodalanish variantlari bo‘lgani kabi frazeologizmlarda ham bunday hodisalar kuzatiladi. Frazeologizmlardagi variantdoshlik hodisasini rus tilshunosligida I.Sidorenko, Y.I.Dibrova o‘rganmoqda. Avvalo, frazeologik sinonim va variantdoshlikning farqli jihatlarini bilib olishimiz zarur. Chunki frazeologizmlarda sinonimiya va variantdoshlik o‘rtasida umumiy jihatlar ko‘pligi tufayli ular ko‘pincha lug‘atlarda, darslik va qo‘llanmalarda almashtirib qo‘llanadi. Xalq maqollarida ijobiy obrazlar bo‘rttiriladi, shunga qarama-qarshi tarzda salbiy obrazlarning salbiylik darajasi ham bo‘rttiriladi. Bu holat maqollarda mubolag‘a san’atini yuzaga keltiradi. *“Uyat o‘limdan qattiq”* maqolida mubolag‘ani sezish mumkin. Bu hayotda o‘limdan yomonroq narsa yo‘q, lekin uyatga qolish yaxshi narsa emasligini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun o‘limdan qattiq so‘zi orqali dalillangan. *“Kichkina demang bizni, ko‘tarib uramiz sizni”* maqolida mubolag‘a san’ati yaqqol ko‘rinib turibdi, *“anqoning urug‘i (tuxumi)”*.

Frazeologik sinonimiya deganda bir ma’noni ifodalovchi turli tuzilishdagi frazeologizmlar tushunilsa²⁰, frazeologik variantlanish esa umumtil frazeologizmlari asosida yuzaga keladi va ular ma’lum frazeologizmga asoslanadi, yoki tilda mavjud bo‘lgan frazeologizmlardan o‘sib chiqqan bo‘ladi. Masalan, *ko‘ngliga tugib qo‘ymoq, yuragiga tugib qo‘ymoq, qalbiga tugib qo‘ymoq* kabi iboralar variantdoshlikni hosil qilsa, *alifni kaltak deya olmaslik, alifni tayoq deya olmaslik* kabi iboralarning sinonimi sifatida *qornini yorsa, alif chiqmaydi* shakli olinadi²¹.

Darhaqiqat, variantdosh iboralar tarkibidagi so‘zlarning umumiy jihati mavjud ekanligi bilan sinonim iboralardan farqlanib turadi. Ya’ni variantdosh iboralar bir-

²⁰ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019.

²¹ Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1999. – Б. 71.

biridan bitta soʻzning tushib qolishi yoki boshqa soʻzga oʻzgarishi bilan farq qiladi (*koʻz ostiga olmoq-koʻz tagiga olmoq, es-xushi ogʻib qolmoq, esi ogʻib qolmoq*).

Frazeologik sinonimlar aynan yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni turli obrazlar yordamida ifodalaydi. Frazeologik variantlar esa shunday tushunchalarni bir obraz yoki bir-biriga yaqin obrazlar yordamida ifodalaydi. Masalan, **“koʻngli toza”** frazeologizmining **“yuragi toza”, “koʻngli pok”, “yuragi pokiza”, “yuragi sof”, “qalbi pok”** kabi variantlari; **“oq koʻngil”** kabi sinonimlari mavjud. Yoki **“koʻngli tortdi”** frazeologizmining **“koʻngil tortar”, “dil tortar”** kabi variantlari boʻlib, ularning **“xush koʻrmoq”** sinonimi mavjud²².

Shuningdek, variantdosh iboralarni biri oʻrnida boshqasini almashtirib qoʻllasa boʻladi (*joni chiqdi – achchigʻi chiqdi*). Toʻgʻri, sinonim iboralarni ham almashtirib qoʻllash mumkin, lekin buning uchun ular uslubiy jihatdan oʻzaro mos boʻlsa, adabiy-uslubiy normaga muvofiq kelsagina oʻzaro oʻrin almashadilar²³. Bu ikki birlik oʻrtasidagi muhim farqlardan biri bu-obrazlilik. Frazeologik sinonimlar bir-biri orasidagi muhim tushunchalarni obrazlilik asosida yuzaga chiqaradi.

Frazeologik variantlanish oʻta mahsuldor boʻlib, aksariyat frazeologizmlarning varianti uchraydi. “Iboralarda variantlanish boshqa til birliklariga nisbatan kuchli”²⁴. Frazeologik variantlar frazeologizmlar shakllanishining vositalaridan biri sifatida koʻrib chiqiladi.

Oʻzbek tilshunosligida frazeologik variantlanish va frazeologik sinonimiya hodisalari chuqur oʻrganilgan. Jumladan, Sh.Rahmatullayev frazeologik variantlanish hodisasiga quyidagicha taʼrif beradi:

- a) turli-tuman oʻzgarishlar sababli biri ikkinchisidan oʻsib chiqqan boʻlishi, barchasi bir manbaga birlashuvi;
- b) asosida ayni bir obrazning yotishi;
- v) ayni bir lugʻaviy maʼnoni anglatishi;

²² Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 234.

²³ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 177.

²⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – Б. 10.

g) o‘zaro o‘sib chiqqan variantlar tarkibida mushtarak so‘z-komponentning bo‘lishi asosga olinadi».

Demak, frazeologik variantlar asos frazeologizmlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, ma‘nolari, stilistik va sintaktik vazifalariga ko‘ra aynan o‘xshash, leksik tarkibida qisman o‘zgarishi bo‘lgan, ayni bir obraz asosida yotuvchi til birligidir. Variantlanish turlicha ko‘rinishda bo‘lib, asos frazeologizmning ayrim komponentlari o‘zgaradi. Frazeologizmlarning har qanday komponenti variantlanishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tilshunoslikda variantlanishning belgilarini aniqlashda turli xil yondashishlar mavjud. Jumladan, A.V.Kunin, I.I.Chernisheva, V.M.Mokiyenko, A.G.Nazaryanlar asosiy e’tiborni variantdor frazeologizmlarning ma’no umumiylikiga qaratadilar. N.M.Shanskiy va L.M.Boldiryeva, I.A.Fedorovlar frazeologik variantlar tarkibi va tuzilishi u yoki bu tarzda o‘zgarishga uchrab, stilistik va ekspressiv xususiyatlari bilan farqlanishini ta’kidlaydilar. V.N.Teliya esa variantdor frazeologizmlar signifikativ ma‘nolari bilan farqlanishini ko‘rsatadi. A.I.Fedorov esa variantdor frazeologizmlarning komponentlari grammatik va fonetik formalari bilan farqlanishini ta’kidlaydi. A.V.Kunin, I.A.Fedosovlar komponent tarkibning qisman o‘zgarishi natijasida leksik invariant (umumiy so‘z-komponent)ning mavjud bo‘lishini uqtiradilar. Turli xil fikrlar bo‘lishiga qaramasdan, deyarli barcha tilshunoslar frazeologik variantlarda obrazlarning umumiy bo‘lishini e’tirof etadilar²⁵.

Tilshunoslikda frazeologizmlarning tarkibida bir komponentni almash qo‘llash asosida frazeologik variantlar shakllanadi: Masalan, *boshi osmonga etdi - boshi ko‘kka etdi, quvonchi ichiga sig‘maydi - quvonchi taniga sig‘maydi, ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi – ko‘kragi tog‘day ko‘tarildi*. Ammo voz kechmoq – bahridan o‘tmoq, gapni bir joyga qo‘ymoq – til biriktirmoq, gardaniga yuklamoq – bo‘yniga qo‘ymoq, dami chiqmadi – mum tishlab qolmoq, dimog‘i chog‘ bo‘lmoq – ko‘ngli ko‘tarildi, yoqasini ushlamoq – hayron qolmoq kabi frazeologizmlarda esa ma’no saqlangan holda barcha komponentlar almashtiriladi. Birinchi turkumda frazeologik variantlar

²⁵ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 235.

shakllansa, ikkinchi turkumda esa frazeologik sinonimlar shakllanadi. Ko‘rinadiki, bunda obrazlar va leksik tarkibning turlichaligi ularni bir-biridan farqlaydi.

O‘zbek tilida variantlanish ko‘p uchraydigan va keng tarqalgan til hodisalaridan biridir, u o‘zbek tili frazeologik lug‘at boyligini yanada oshirish uchun xizmat qiladi²⁶. Haqiqatan, iboralarda variantlanish boshqa til hodisalariga nisbatan kuchli tarzda yuzaga chiqadi deb aytishimiz mumkin. Frazeologizmlardagi variantlilikni aniqlashda, ulardagi ayni ma’no o‘xshashligiga, tarkibidagi so‘zlarning bir tipga tegishli ekanligiga va obrazlilikiga e’tibor qaratish lozim. Ichki bog‘liqlik (obrazning umumiyliigi) frazeologik variantlarning hosil bo‘lishida asosiy tushunchadir²⁷.

Tilshunoslikda frazeologik variantlarning morfologik, leksik, sintaktik, stilistik, fonetik va orfografik kabi variantlari bor. O‘zbek tilida bulardan leksik variant mahsuldor hisoblanadi. «Ibora tarkibida mustaqil turkum so‘zi bilan ifodalagan komponenti o‘zgartirib hosil qilingan variantga leksik variant deyiladi»²⁸. Bunda ibora tarkibidagi biror bir so‘z boshqa so‘zga almashtirilishi, so‘z qo‘shilishi yoki tushirilishi mumkin.

Frazeologik birliklar ichida, ayniqsa, insonning tana a‘zolari bog‘liq frazeologizmlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Misol uchun *ko‘ngil* leksemasi asosiy semantik tayanch bo‘lib xizmat qilgan frazemalar talaygina. Ko‘ngil inson psixikasi bilan bog‘liq bo‘lganligi tufayli inson ruhiy holatini namoyon etadi: misol uchun, istak-xohishga mos tushadigan ish yoki harakat bilan o‘ziga moyil qilish, yaxshi kayfiyat, xotirjamlik, fe’l-atvor, xarakter, xulq, ruhiy g‘amginlik, xafalik kabi holatlarni ifodalaydi.

Quyida ko‘ngil so‘zi bilan bog‘liq leksik variantdoshliklarni ko‘rib chiqamiz.

1. *Ko‘ngil bermoq yoki ko‘nglidan chiqmoq g‘am g‘ussani tarqatmoq, unutmok.*

2. *Ko‘ngil qo‘ymoq yoki ko‘ngil bermoq, mehr-muhabbat bog‘lamoq, sevmok.*

²⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. – Б. 10.

²⁷ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув кўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 235-бет.

3. *Ko'ngli joyiga tushmoq yoki ko'ngli o'rniga tushmoq-xotirjam bo'lmoq, tinchlanmoq; taskin topmoq. Ko'ngli ko'tarilmoq yoki ko'ngli o'smoq – ruhlanmoq, kayfiyati ko'tarilmoq; xursand bo'lmoq.*

4. *Ko'ngli sovimoq yoki ko'ngli qolmoq, qaytmoq-avvalgi yaxshi munosabati, mayli yo'q bo'lmoq, ixlosi qaytmoq, sevmaydigan, yoqtirmaydigan bo'lib qolmoq.*

5. *Ko'ngli sof yoki ko'ngli toza.*

6. *Ko'ngliga tegmoq yoki ko'ngliga urmoq.*

7. *Ko'nglidan kechirmoq yoki ko'nglidan o'tkazmoq-xayolidan o'tkazmoq, o'ylamoq.*

8. *Ko'nglini ko'tarmoq yoki o'stirmoq-dilini chog' qilmoq, xursand qilmoq.*

9. *Ko'ngliga sig'maslik varianti yuragiga sig'maslik.*

10. *Ko'ngliga urmoq varianti ko'ngliga zig'ir yog'day urmoq.*

11. *Ko'ngliga qo'l solmoq varianti yuragiga qo'l solmoq.*

12. *Ko'nglida kiri yo'q varianti yuragida kiri yo'q.*

13. *Ko'nglidan o'tmoq varianti dilidan o'tmoq.*

14. *Ko'ngli ko'tarmaydi varianti yuragi ko'tarmaydi.*

15. *Ko'ngli g'ashlandi varianti yuragi g'ashlandi.*

16. *Ko'ngli og'ridi varianti dili og'ridi.*

17. *Ko'ngli to'q bo'ldi varianti ko'nglini to'q tutmoq.*

18. *Ko'ngli xira bo'lmoq varianti ko'ngilni xira qilmoq.*

19. *Ko'ngli tortdi varianti ko'ngil tortar, dil tortar.*

20. *Ko'ngli cho'kdi varianti ko'ngilni cho'ktirmoq.*

21. *Ko'ngli yorishmoq- dili yozishmoq.*

22. *Ko'ngli vayron bo'ldi varianti dili vayron bo'ldi.*

23. *Ko'ngli bo'sh varianti yuragi bo'sh.*

24. *Ko'ngil bermoq varianti dil bermoq.*

25. *Ko'ngil bog'lamoq varianti dil bog'lamoq.*

Qayd etish joizki, birgina ko‘ngil so‘zi bilan bog‘liq leksik variantdoshliklar o‘zbek tilining izohli lug‘ati va Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da talaygina hisoblanadi. Biroq bu ikki kitobda ba’zi variantdoshliklar turlicha ko‘rinishda berilgan, masalan, izohli lug‘atda “*ko‘ngli qattiq*” iborasiga sinonim sifatida “*ko‘ngli tosh*” olingan bo‘lsa, Sh.Rahmatullayevning kitobida variantdosh qilib olingan. Shuningdek, Sh.Rahmatullayev ko‘ngil so‘zining o‘rniga sinonimlari hisoblangan “*yurak*” va “*dil*” so‘zlarini almashtirib qo‘llab variantdoshlik hosil qilgan. “Izohli lug‘at”da esa bunday birikmalar sinonim iboralar sifatida olingan. “*Ko‘ngliga qil sig‘maydi*²⁹ - *yuragiga qil sig‘maydi*”, “*Ko‘ngli g‘ash bo‘ldi* - *yuragi g‘ash bo‘ldi*”³⁰.

Tilshunos A.Mamatov ham ko‘ngil so‘zining quyidagi variantlarini aytib o‘tadi: “*ko‘ngli toza*” frazeologizmining “*yuragi toza*”, “*ko‘ngli pok*”, “*yuragi pokiza*”, “*yuragi sof*”, “*qalbi pok*” kabi variantlari mavjud³¹.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, leksik variantlanish frazeologizmlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi va yangi frazeologik birikmalar paydo qiladi. Leksik variantlanishlar ham leksik qo‘shish, leksik tashlash, leksik almashtirish kabi omillar asosida yuzaga keladi. O‘zbek tilida leksik almashtirish asosida ko‘plab leksik variantlanish, pirovardida frazeologik shakllanish yuz beradi. Leksik almashtirish jarayonida leksemalar o‘zaro sinonim va yaqin ma’noli bo‘ladi. Ular orasidagi ma’noviy farqlar ma’noning kuchli va kuchsizligida, stilistik belgida ko‘rinadi.

1.3. Milliy xarakterdagi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari.

Bugungi globallashuv jarayonida millatlararo munosabat madaniyati va uning etnomadaniy aspektlari masalasi yanada dolzarblashdi³². Bu o‘z o‘rnida boshqa sohalarda bo‘lgani kabi tilshunoslik sohasida ham dolzarb masalalar borligini

²⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 2 том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 459.

³⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – Б. 173.

³¹ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 233.

³² Махмараимова Ш.Т. Лингвокультуроология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – Б. 27.

ko'rsatmoqda. Xususan, tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri sifatida xalqning lisoniy mazarasida mavjud lingvomadaniy jihatlarni tadqiq qilishda muhim vazifa bajarishini ham ifoda etadi. Shu o'rinda har bir xalq lingvomadaniyatida mavjud frazeologizmlarda, albatta, madaniy xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Frazeologizmlar, avvalo, aloqa vositasidir. U tilda ijtimoiy vazifani bajarib, madaniyat, tafakkur, milliy-mentallik munosabatlarida mavjud bo'ladi va nutqqa ko'chganda ularning mohiyatini yuzaga chiqaruvchi kommunikativ vosita vazifasini bajaradi.

O'zbek xalqi azal-azaldan purma'no so'zlarga, chiroyli o'git va nasihatlariga boy xalq sanaladi. Chunonchi, o'zbek voqeligi asosida shakllangan frazeologizmlar ilmiy adabiyotlarda milliy xarakterli frazeologizmlar atamasi bilan yuritiladi³³. Frazeologizmlar xalqning milliy o'ziga xosligini, madaniyatini, qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Txan Xaning ta'biri bilan aytganda, "Frazeologik birliklar mazmuniga ko'ra obraz, hodisa, holat, xarakter, xulq-atvor, munosabat... ifodalaydi"³⁴.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, frazeologizmlarning milliy-madaniy jarayonlarini zamonaviy tilshunoslikda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Zeroki, frazeologizmlarning mazmun-mohiyatini tilning boshqa leksik tushunchalar bilan qiyoslab bo'lmaydi hamda ularni boshqa tilga aynan tarjima qilish ham imkonsiz. A.Mamatov aytib o'tgandek: "Muqobilsiz leksika mazmunida milliy reallik yotadi. Bunday leksemalarning mazmun-mohiyatida boshqa etnoslar madaniyatida mavjud bo'lmagan, faqat muayyan millat madaniyatiga xos bo'lgan milliy predmetlar, urf-odatlar, milliy kiyimlar, milliy tuzum, milliy taomlar, milliy an'analarning nomlari, mazmun-mohiyati aks etadi"³⁵. Shuningdek, tilshunos olim V.A.Maslova milliy frazeologizmlar haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan "frazeologik birliklar o'z

³³ Qarang: Назарян А.Г. Фразаология современного французского языка: Учеб. – 2-э изд. перераб. и доп. – М.: Высш. шк., 1987. – С. 33-36; Молотков А.М. Основы фразеологии русского языка. – Ленинград. Наука. Ленингр. отд-ние., 1977. – С. 217-218.

³⁴ Фам Тхи Тхань Ха. Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов английского и вьетнамского языков. Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Казань, 2005. – С. 10.

³⁵ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 248.

ma'no strukturasi xalq madaniyati rivojlanishining uzoq yillik jarayonini ifoda etadi, madaniy stereotiplar, etalonlar, arxetiplarni avloddan avlodga etkazadi, muhrlaydi, yozib qoldiradi”³⁶.

Frazeologik birliklar tilda tayyor holda mavjud bo'lgan, ko'p uchraydigan, fikrni keng qamrovli, obrazli, o'tkir ifodalaydigan turg'un birikmalardir. Sh.Maxmaraimovning "... frazeologizmlar millatning o'zigagina xos bo'lgan munosabat bildirish, baholash shakli bo'lib, bunda millatning ma'naviy-qadriyat manzarasiga tegishli belgilar frazeologik ma'noni tarkib toptiruvchi asosiy sabablardan”³⁷ biridir. Darhaqiqat, frazeologik birliklar bevosita xalq turmush tarzini ifodalashda muhim ahamiyatga egadir.

Frazeologizmlar ichida o'zbek turmush tarzidagi hayotiy voqelikni, kuzatishlarini ifodalovchi, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'daniy va ma'naviy hayotini aks ettiruvchilar frazeologizmlar talaygina topiladi. Masalan, tilimizdagi *atlas ko'ylakka bo'z yamoq* (arzimagan nuqsonning yaxshi narsani buzishi) frazeologizmida atlas qadimda o'zbek xalqining eng ohorli milliy matosi hisoblangan, bo'z esa uning aksi. Ushbu buyumlar orasidagi farq bu frazeologizmning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ya'ni chiroyli bir narsaning arzimagan xato tufayli xunuk bir narsaga aylanishi. Chilonzor massividan uy solgan xonadonlar bu hangomalardan bezor bo'lib: “quruvchilar atlas ko'ylakka bo'z yamoq yopishtirib ketishibdi...” degan mazmunda shikoyat yozgan edilar (Mushtum).

Arpa. *Arpasini xom o'rmoq* – biror bir yomonlik qilmoq. Bunda arpa leksemasi anglatayotgan ma'no butun bir frazeologizmida ifodalanayotgan fikrni bildiradi. Ya'ni kimningdir arpasini pishmasidan o'rish o'sha kishiga yomonlik qilgan bilan teng deyilmoqda. Alisher Navoiyga qarshi tillaringni muncha qayray berdilaring! U janob senlarning arpalarini xom o'rdimi³⁸.

³⁶ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Изд. центр «Академия», 2001. – С. 20.

³⁷ Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya). – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. – B. 271.

³⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 1 том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 100.

Atala. *Atala maxsum* – bo‘shashgan, lalaygan, lanj odam haqida. Atala ichdingmi? Ha deb yiqilaveradigan yoki bo‘shashgan odamga nisbatan aytiladigan ibora.

Atalaga bismillo – bu iboraning ma’nosi quyidagicha: ma’lumki, atala suyuq, hazm bo‘lishi, yutilishi oson taom. Shu tufayli ham juda oson, engil bitadigan ish haqida gap ketganda ushbu ibora ishlatiladi.

Atalaning ichidan suyak chiqmoq – umuman kutilmagan odamdan yaxshi gap chiqmoq. – O‘lmang siz! Ataladan suyak chiqib, muncha buning og‘zidan novvot tomib qoldi desam, hammasi pulning xushomadi ekan-da? (K.Yashin. Oftobxon).

Beshik. *Beshik ketdi* – qiz farzand tug‘ilganda uni unashirib qo‘yish. Agar otasi rozi bo‘lsa, shu qizga uylanardim, dedi o‘ziga-o‘zi. Bordi-yu, ungacha otasi erga berib yuborsa-chi? Yoki beshik ketdi qilib qo‘yilgan bo‘lsa, nima bo‘ladi? (R.Jalil. Po‘lod va Gulro‘)

Beshigini tebratmoq – betakalluf muomalada bo‘lmoq, odatda bu ibora o‘zidan kichik kishiga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, bu ibora o‘stirmoq, ulg‘aytirmoq ma’nosida ham keladi. (Nega sen o‘z tinchingdan ayrilib qolding? Ayrilganni bo‘ri er edi-ku! Onang umid bilan beshigingni tebratgan. Shu bechora onang sendan nima ko‘rdi (A.Qahhor. “Qo‘shchinor chiroqlari”).

Milliy frazeologizmlarning ko‘pchiligi xalqimizning hayotiy kuzatishlari, turmush tajribasi, geografik joylashuvi, o‘ziga xos tushunchalari asosida shakllangan. O‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi bir qancha milliy liboslari mavjud. Bu kabi kiyimlar xalqining madaniyati va tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Ular orasida, ayniqsa, **do‘ppi** leksemasi bilan bog‘liq frazeologizmlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Ma’lumki, do‘ppi bosh kiyimi milliylikimizni aks ettiradi. Xalqimizda *“birovning do‘ppisini birovga kiygizmoq”* iborasi mavjud bo‘lib, o‘zining foydasini ko‘zlagan holda boshqalarni aldab, laqillatmoq ma’nosini beradi. Juda tez va oson bitadigan ishlarni esa, *“do‘ppini almashtirgandek”* iborasi bilan ifodalash mumkin.

A.Mamatov o‘z o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida do‘ppi so‘zi bilan bog‘liq frazeologizmlarni tahlil qilar ekan “*do‘ppisini osmonga otmoq*” iborasini quyidagicha izohlaydi: “kishi quvonganda, biron ijobiy voqea-hodisadan, xabardan xursand bo‘lganda beixtiyor do‘ppisini osmonga otish hollari uchraydi. Shunday xursandchilik va quvonish ottenkasini obrazli ifodalash ehtiyoji asosida ushbu ibora paydo bo‘lgan”³⁹. Bundan tashqari do‘ppi leksemasi bilan bog‘liq boshqa frazeologizmlar ham mavjud bo‘lib, “*do‘ppisini erga qo‘yib o‘ylamoq*” frazeologizmi xotirjamlik bilan, bamaylixotir, diqqatni bir erga jamlab, uzoq o‘ylamoq degan ma‘nolarni beradi, ya‘ni do‘ppisini olib qo‘yib, shoshilmasdan mulohaza yurituvchi kishiga nisbatan qo‘llaniladi.

Do‘ppining tagida odam bor - siringni birovga aytma, chaqma-chaqar, gap tashuvchi kishilardan ehtiyot bo‘l ma‘nolarini bildiradi.

Do‘ppisi yarimta- beg‘am, beparvo, g‘am-tashvishi yo‘q hamda parvoyipalak kishilarga nisbatan ishlatiladigan ibora.

Do‘ppi tor kelganda frazeologizmini ikki xil ma‘noda tushuniladi. 1)ish tig‘iz yoki noiloj qolgan vaqtda.Do‘ppi tor kelib qoladigan vaqtlarda kabob qilib yuboramiz.(M.Muhamedov, Qahramon izidan); 2) kamchilik, yetishmovchilik yuz berganda. O‘ylab qarasam, do‘ppi tor ekan. Kattaroq ish qilishga qo‘limiz kalta ekan.(I. Rahim, Ixlos).

Do‘ppisini ol desa,kallasini olmoq- biror bir vazifani keragidan-da ortiq, qo‘pol tarzda amalga oshirishga nisbatan ishlatiladi. Tasaddug‘ingiz ketay, do‘ppisini olib kel desangiz, axir biz jallod.. boshini kesib keltiramiz-da (Hamza Boy ila xizmatchi)⁴⁰.Yuqoridagilarning barchasi do‘ppi leksemasi atrofida birikib turli xil ma‘noga ega frazeologizmlarni hosil qilgan.

³⁹ Mamatov A. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 250.

⁴⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 1 том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 676.

To'n (chopon). To'n- o'zbek madaniyatida kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim ⁴¹. To'n so'zi bilan bog'liq bir qancha frazeologizmlar mavjud:

To'nini teskari kiymoq – o'jarlik qilmoq, qaysarlik qilmoq. Aynan nima uchun bu iborada to'nini teskari kiyish orqali qaysarlik qilish ma'nosi berilayotganligiga izoh bersak. Erkin Vohidovning talqinicha: avvallari kambag'al kishi g'azab otiga minib, mushtlashaman degan vaqtda to'nini teskari kiyib olgan. Qon yoki loy tegsa to'nining astariga tushsin, yirtilsa astari yirtilsin, yamoq tushsa astariga tushsin degan maqsadda to'nini teskari kiyib olgan. Chunki kambag'alning to'ni ikkita bo'lmagan. Yirtilsa boshqasini kiya olmagan. Shu sababli ushbu ibora paydo bo'lgan. Shuningdek, *bir to'ni ikki bo'lmadi (qashshoqlikda kun kechirish)* iborasi ham yuqoridagi jihat bilan bog'liq. Kambag'al kishining bitta to'ni ikkita bo'la olmagan, uning hanuzgacha qashshoq ekanligini ifodalaydi.

Gapga to'n kiygizmoq- gapni boplab, qoyilmaqom qilib gapirmoq (yana boshqa bir manbada gapni qo'shib-chatib gapirmoq deyiladi). *Soyasiga qarab to'n bichmoq*- aslini bilmay turib xulosa chiqarmoq.

Kavush. *Kavushini to'g'irlab qo'ymoq*- adabini bermoq, jazolamoq, haydab yubormoq ma'nolarida qo'llaniladi. Kavushini to'g'rilab qo'yish *kerak*; qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi bu. (A.Muxtor. Tug'ilish).

Kavushi ko'chada qolgani yo'q-oyog'i ko'chada qolgani yo'q. Chorlamagan joyga borish uchun sening kavushing ko'chada qolgan emas (A.Qodiriy. O'tgan kunlar).

Do'mbira. Do'mbira – ikki torli, pardasiz, dutorga qaragan-da kaltaroq, chertib chalinadigan cholg'u asbobi. O'roz daraxtga suyanib, do'mbirasini chertar edi. (Oybek. Tanlangan asarlar)⁴². Milliy cholg'u asbobi bo'lgan do'mbira leksemi tayanch bo'lib xizmat qilgan bir nechta frazeologizmlar mavjud. *Do'mbira qilib*

⁴¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, V том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 238.

⁴² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, I-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 674.

chalmoq – o‘zgalarning gapini shov-shuv qilib aytib yurmoq, mish-mish qilmoq, ovoza qilmoq. Mana shunaqalar kishining sirini do‘mbira qilib chaladi-da, ehtiyot bo‘lish kerak (A.Muhiddin “Qitmir”). *Do‘mbira qilmoq* – do‘mbira singari shishirib yubormoq. Bunda do‘mbiraning tashqi ko‘rinishiga nisbatlagan holda semiz, yumaloq qilib yubormoq frazeologizmi shakllangan. Yalqov, dangasa kishilarga nisbatan *do‘mbirasini chertib yurmoq* (bekor, ishsiz yurmoq) iborasi ishlatiladi. Negaki bo‘lar-bo‘lmasga do‘mbira chertib, ishsiz yuradigan kishiga shunday iborani qo‘llash odat tusiga kirgan.

Tanbur. *Qulog‘iga tanbur chertmoq*, varianti: qulog‘iga tanbur chalmoq – tinglovchining befarqligi, loqaydligidan norozi bo‘lmoq. *Devorga tanbur chertgandek* – kimningdir gapiga e‘tiborsiz munosabat bildirganda. Madina hech narsani eshitmas, onasining so‘zlari devorga tanbur chertganday edi. Ammo ona buni tushunishni xohlamas, qiziga nasihat qilishdan to‘xtamasdi. So‘zlashuv uslubi) *Ho‘kizning qulog‘iga tanbur chertmoq- gapni behuda gapirmoq*.

“*Kimga deпти xo‘jayin?*” – hayron bo‘lib so‘radi Gulsumbibi. “*Ho‘kizning qulog‘iga tanbur chertdimmi, nodon xotin!* – qizishib ketdi Yormat.

– *Kimga bo‘lar edi, boy otam o‘ziga so‘rayapti*”. (Oybek. “Qutlug‘ qon”)

Arava. O‘tmishda transport vazifasini bajargan *arava* bilan bog‘liq frazeologizmlar ham talaygina. Masalan, *aravangni tort* – ishingni qil, jo‘na ma’nolarini beradi. *Aravani quruq olib qochmoq* – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsani gapirib maqtanmoq, quruq, balandparvoz gap gapirmoq. Bu iboraning shakllanishiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ichida hech narsasi yo‘q aravani olib qochish go‘yoki maqtanishga arzigulik narsa haqida behuda gapirishga o‘xshaydi.

Aravani quruq olib qochding, og‘ayni. Gapga ham amirkon moy surtib, g‘irchillatvoradigan bo‘psanda. (S.Ahmad. “Oriyat”).

Yana bir hayotiy tajribalarga asoslangan arava bilan bog‘liq iboralardan biri: “*aravani teng tortmoq*”. Bilamizki, qadimda arava birgalikda, baravar tortilsa tekis

va ravon yurgan. Shu tufayli hamma teng mehnat qilishini ushbu ibora bilan qo'llash mumkin.

O'z aravasini o'zi sudramoq (varianti: o'z aravasini o'zi tortmoq) – qiyinchiliklarni o'zi, boshqalarning yordamisiz bajarmoq.

Po'latjon majlislarda prezidiumlarga saylanish va gazetaga tushish shavqini kechirmagan, bir chekkada o'z aravasini o'zi sudrab yurgan kishilardan edi. (S.Ahmad. "Qadr don dalalar").

Ot tuynukka, arava eshikka kelganda – ish tiqilinch bo'lib qolganda biror ishni bajarishga urinmoq. Oy tuynukka, arava eshikka kelganda darding chiqadi sen bolaning ham! Shuncha darding bor ekan, shu paytgacha nega aytmading. (Gazetadan)

Ko'rpa. Bir ko'rpada tepkilashib katta bo'lmoq – yoshlikdan birga katta bo'lmoq. *Biz Yo'ldoshvoy bilan bir ko'rpada tepkilashib o'sganmiz.* (S.Ahmad. "Ufq").

Burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirmoq varianti: burgaga achchiq qilib ko'rpani yoqmoq yoki o't qo'yimoq – arzimagan narsani deb jahl ustida nojo'ya harakat qilmoq. *Quruq yog'och ham egiladi. Men ham uyimga borib yotib oldim... Burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'ygan ekanman. Endi tushundim.* (I.Rahim).

Ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq – imkoniyatiga yarasha ish tutmoq...keyin mablag' etkazolmay, qurilishingiz o'lda-jo'lda qolib ketmasin tag'in, o'rtoq ...".

Ko'rpangga qarab oyoq uzat demoqchisiz-ku, deb kuldi Sherbek. (S.Anorboyev. "Oqsoy").

Ko'rpa – yostiq qilib yotib olmoq – jiddiy kasalga chalinib, o'rnidan tura olmay qolmoq.

Ota mehriга qonmagan go'dak jajji qo'llarini uzatib, besh-olti qadamni yiqilib-turib bosadigan bo'lganda Ahmad aka ko'rpa-yostiq qilib yotardi. (S.Abduqahhor. "Hayotning boshlanishi").

Non. O‘zbek xalqi azaldan nonni e‘zozlab, uning biror ushog‘ini bo‘lsa-da uvol qilmaslikka undaydi. Zero, bobo-momolarimiz doimo bizga nonni oyoq ostiga tashlamaslik, nonni erga qo‘ymaslik, otmaslik kerakligi haqida uqtirib kelishadi. Shu bilan birgalikda non konsepti bilan bog‘liq turli xil qadriyatlar ham mavjud. Jumladan, uzoq safarga ketayotganda “non tishlatmoq” to‘y marosimlar debochasi “non sindirmoq”, uzoq safardan yoki mehmon kelganda non va tuz bilan kutib olish kabi odatlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan⁴³.

Milliy mentalitetimizga xos bo‘lgan bu kabi tushunchalar asnosida tilimizda ko‘plab frazeologik birliklar shakllangan:

Noni butun bo‘lmoq – tirikchilik uchun zarur hamma narsasi muhayyo bo‘lmoq. Varianti: yarimta non(i)ni butun qilmoq. Antonimi: non(i) yarimta bo‘lmoq.

Ammo yil-o‘n ikki oy aldama-qaldamni bilmay halol ishlagan hamkasbining noni butun bo‘lmasligiga o‘zi sababchi ekani esiga kirib chiqmaydi ham. (S.Anorboyev. “Oqsoy”).

“Xudo bandasining nonini butun qilsa, hech kim uni yarimta qila olmaydi”, – deb o‘z mehmoni Bozor aminga so‘z boshladi O‘rmon polvon. (S.Ayniy. Qullar)⁴⁴.

Noni yarimta bo‘lmoq – bu ibora noni butun bo‘ldi iborasining qarama-qarshi shakldagi ko‘rinishi hisoblanadi.

Kimningdir narsasiga sherik bo‘lmoq. Ha nomard. Yurtning nonini yarimta qilaman deb urishib kelganim yo‘q. Mana shu yarimta bo‘lib qolgan nonni butun qilaman deb jang qildim (S.Ahmad. “Qadrdon dalalar”).

Nonini tuya qilmoq – birovning haqqini emoq, aldab ulushiga sherik bo‘lmoq, undan foydalanmoq.

Ofarin, hali bolalarning nonini tuya qilib beraman, supurgi puli olaman, bo‘yra puli olaman deng? (M.Ismoiliy. “Farg‘ona tong otguncha”).

⁴³ Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – B. 46-47.

⁴⁴ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2022. – B. 329.

Oshiq. *Oshig‘i olchi bo‘lmoq.* Varianti oshig‘i olchi kelmoq. Ushbu frazeologizm ham o‘zining milliy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, xalqimiz azaldan oshiq o‘yinini o‘ynab keladi. Oshiqning asli ma’nosi “ayrim hayvonlarning orqa oyog‘i tizza bo‘g‘imidagi biriktiruvchi chorqirra suyakcha” [O‘TIL. 555] bo‘lib, u qo‘y oshig‘i vositasida o‘ynaladigan o‘yinning nomini ham ifodalaydi. O‘yin davomida oshiq yassi tomoni bilan turib qolsa, uni otgan kishi “olchi” deb tan olinadi. Olchi o‘rtaga qo‘yilgan sovrinni oladi. Demak, olchi “ishi yurishgan”, “muvaffaqiyat qozongan” ma’nolarini bildiradi. Shu tushuncha asosida “ishi yurishgan kishilar” ma’nosi oshig‘i olchi iborasi bilan ifodalanadi⁴⁵.

Menimcha, bilan uning orasini buzish kerak. Butun gap shunda... uni yomon ko‘rsatsak, bas, oshig‘imiz olchi (Oybek, “Oltin vodiidan shabadalar”).

Tilimizda, shuningdek, ushbu frazeologizmga qarama-qarashi bo‘lgan *oshig‘i tovva bo‘lmoq* iborasi ham mavjud bo‘lib, *ishi yurishmasdan, ishi doimo pachava* bo‘lib yuradigan kimsalarga nisbatan qo‘llaniladi. Nega mening oshig‘im tovva-yu, uniki olchi? Uning mendan nimasi ortiq? (S.Anorboyev. “Oqsoy”).

Tovva – so‘zining lug‘aviy ma’nosi – oshiqning olchiga qarama-qarshi tomoni. Shu tufayli bu frazeologizm oshig‘i olchi iborasiga zid shaklda ifodalangan.

Osh. *Hovuriga osh pishirsa bo‘ladi, varianti: hovuriga osh damlasa bo‘ladi* – o‘zini juda yuqori tutuvchi, hadiddan oshgan insonlarga nisbatan qo‘llaniluvchi ibora...hovuriga ikkita osh pishadigan boshliq burniga qo‘ngan pashshaga dag‘dag‘a qilib, mushti bilan qo‘rib haydadi. (M.Muhamedov. “Qahramon izidan”).

Osh bermoq – to‘y yoki marosim vaqtida katta qozonda osh pishirib, ziyofat o‘tkazish. Iqboling baland bo‘lar ekan. Bir hafta elga osh berilgan edi (S.Anorboyev. “Oqsoy”).

Oshga pashsha tushmoq – yaqin kishilar suhbatlashayotgan vaqtda boshqa bir kishining kelishi bilan suhbatning bo‘linishi mana shu ibora bilan ifodalanadi. Bunda

⁴⁵ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 62.

go'yoki kishining ovqat eyotgan vaqtida taomga pashsha tushib ishtahasini bug'gan kabi o'xshatish qilingan.

*To'laganning kelishi bilan gap bo'lindi, buzildi. "Esizgina, endi gaplasha boshlagan edik-a. **Oshga pashsha tushdi**", – dedi Xolmurod boshini chayqab (P.Tursun. "O'qituvchi")*

Oshini oshab – yoshini yashab bo'lmoq – umrining ko'p qismini yashab o'tmoqlik.

Anorxon, qizim, – dedi kampir, – yoshimni yashab, oshimni oshab bo'ldim. Ammo halqumimda birgina narsa tiqilib turibdi... To'yingni ko'rsam deyman. Bisoting etarli. Ko'zimning tirikligida to'y qil, bolam (I.Rahim. "Ixlos").

***Osh-qatiq bo'lmoq** – yaxshi munosabat qurmoq, yaxshi kelishmoq. Uy egasi bilan ko'p ham osh-qatiq bo'lib o'tirmasa-da, negadir shu erni xushlardi, o'z uyidek emin-erkin, yayrab dam olardi... (Sh.Bo'tayev. "Qora tuman").*

Shunday qilib, o'zbek xalqining o'ziga xosligi milliy frazeologizmlarda aks etadi. Milliy o'ziga xoslik frazeologik birliklarning grammatik, semantik, fonetik, leksik xususiyatlarida ham namoyon bo'ladi. Milliy xarakterni ifodalovchi frazeologizmlarning ko'pchiligi xalqimizning o'tmishini, madaniyatini, turmush tarzini o'zida namoyon etganligi bois xalqqa yaqin, obrazlilik kuchli. Milliy frazeologizmlar mislsiz til hodisasi bo'lib, ular u yoki bu xalqning mentalitetini, madaniyatini, hayot tarzini, psixologik va fiziologik hamda madaniy-ma'rifiy tomonlarini aks ettiruvchi mental tuzilmadir.

Bobga doir xulosalar

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida frazeologiya maktabiga Sh.Rahmatullayev asos solgan bo'lib, so'ng uning izdoshlari tomonidan bu maktab yanada rivojlantirilib, takomillashtirib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin frazeologiya sohasida salmoqli ishlar bajarildi. Xususan, frazeologizmlarning semantik-struktur, grammatik-uslubiy jihatdan o'rganish bo'yicha muayyan yutuqlarga erishildi. Tilshunoslarimiz tomonidan bir qator o'quv-uslubiy

qo‘llanmalar, monografiyalar, risolalar, darslik va frazeologik lug‘atlar yaratildi hamda shu bilan birga olimlarimiz bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi.

So‘ngi yillarda frazeologizmlarni o‘rganish borasida turli xil tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, frazeologik variantlanish hamda sinonimiya hodisasi batafsil tadqiq qilinyapti.

O‘zbek tilida frazeologik hodisalar ichida eng keng tarqalgani variantlanish hodisasidir. Variantlanishning bir qator turlari shakllangan bo‘lib, leksik variantlanish eng sermahsuli hisoblanadi. Variantlanish hodisasi yangi tarkibli frazeologizmni shakllantiradi.

Frazeologizmlarning ko‘pchiligi ko‘p yillar davomida o‘zbek xalqining madaniy hayoti, ijtimoiy turmush tarzi, siyosiy va iqtisodiy jihatlari, geografik joylashuvi va o‘ziga xos xususiyatlari asosida shakllangan. Frazemalar tarkibidagi leksemalardagi umumiy anglashiladigan ma’no oddiy yig‘iladigan ko‘chma ma’no bo‘lmay, balki xalqimizning azal-azaldan shakllangan madaniyatini, milliyligini o‘zida aks ettiruvchi birlik sifatida gavdalanardi.

Frazeologizmlar dunyoning lisoniy manzarasini namoyish qiluvchi, borliq va jamiyat haqida madaniy ma’lumot beruvchi tilning muhim birliklaridan biridir.

II. BOB.FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISH ASOSLARI

2.1. Bugungi kunda frazeologizmlar bilan bog‘liq ba‘zi dolzarb muammolar

O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning grammatik, semantik, leksik, uslubiy tadqiqiga bag‘ishlab bir qancha ilmiy ishlar qilingan bo‘lsa-da, ba‘zi bir muammolar o‘z echimini topmay kelmoqda. Masalan, frazeologizmlarning semantik-struktur shakllanishi, etimologiyasi, tarixiy taraqqiyoti, ma‘lum vaqt o‘tgandan keyin o‘zgarishga uchragan frazemalar, frazeologizmlarning lug‘atlarda qay tartibda berilganligi, bir so‘z doirasida qo‘llaniluvchi iboralar va boshqa shu kabi masalalar tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, tilshunoslikda yana bir shunday muammo borki, bu – frazeologik birliklar tarkibiga nimalar kirishi haqidagi qarashlarning turlicha ekanligidir. Tilshunoslikda barqaror birikmalar “paremiologiya” bo‘limida o‘rganiladi, ya’ni bu bo‘limda tildagi turli xarakterga ega barcha iboralar tadqiq etiladi. Frazeologiyada esa faqat ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalar o‘rganiladi. Lekin ko‘pgina tilshunos olimlar frazeologizmlarni keng ma’noda tushunib, ularga iboralar bilan birga:

undov xarakteridagi frazeologizmlar: *“umringdan baraka top”, “qutlug‘ bo‘lsin”, “otangga rahmat”, “go‘ringda to‘ng‘iz qopgur”, “diydoring qursin”;*

kirish frazeologizmlar: *“gapning qisqasi”, “baxtga qarshi”, “xulosa shuki”, “xulosa qilib aytganda”, “qisqa qilib aytganda”;*

maqol tipidagi frazeologizmlar: *“o‘zingni er bilsang, o‘zgani she‘r bil”, “teng tengi bilan, tezak qopi bilan”;*

matal tipidagi frazeologizmlar: *“olmoqning bermog‘i bor”, “kemaga tushganining joni bir”;*

hikmatli frazeologizmlar: *“odami ersang demagil odami”*, *“anikim yo‘q xalq g‘amidan g‘ami”* kabi birikmalarni kiritishadi⁴⁶. Bunga ularning tuzilishi jihatidan ikki va undan ortiq so‘zlardan iboratligi, nutqqa tayyor holda kiritilishi, tarkibidagi so‘zlarning o‘rnini almashtirib bo‘lmasligi, obrazlilik mavjud ekanligi kabi sabablar misol bo‘ladi. Rus tilshunosi A.V.Kunin frazeologizmlar tarkibiga murakkab ma’noli barcha turg‘un birikmalarni kiritadi, shuningdek, maqollarni ham ikki va undan ortiq so‘zdan iborat ekanligi, tayyor holda nutqqa kiritilganligi uchun frazeologik birlik sifatida talqin qiladi. Yana bir rus tilshunosi V.V.Vinogradovning fikricha frazeologik butunlik tarkibiga texnik va ilmiy birikma terminlar, qanotli so‘z va birikmalar, kalamburlar, maqol va matallar ham kiradi. Frazeologik birliklarni keng ma’noda tushunilganda, frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklor tiliga xos barqaror jumlar, muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi⁴⁷.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarni keng va tor ma’noda tushunish bor. Ayrim mualliflar aviatsiya sanoati, botanika bog‘i, xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, arifmetik jadval, fan kandidati kabi ayrim tarkibli terminlarni ham frazeologizmlar tarkibida o‘rganib kelishmoqda⁴⁸. Xususan, taniqli olim, adabiyotshunos G‘.Salomov o‘zining «Til va tarjima» asarida iboralar, maqol va matallar, hikmatli so‘zlar va aforizmlarni tadqiq qilar ekan, quyidagi fikrlarni bayon qilgan: “Biz “frazeologiya” deganda maqol, matal, idiomalar, qochiriq, obrazli hamda ko‘chma ma’noli so‘zlar va boshqa turg‘un birikmalarni nazarda tutdik, ya’ni bu termini keng ma’noda ishlatdik”⁴⁹. To‘g‘ri, frazeologizmlarni keng ma’noda o‘rganish ularni yaxshiroq tushunish imkonini beradi, lekin bizningcha yuqoridagilarning barchasini frazeologik birliklar deb hisoblab bo‘lmaydi. Chunki frazeologizmlarning asosiy xususiyatlariga ikki va undan ortiq so‘zlardan iboratligi, nutqqa tayyor holda kiritilishi, imotsional-

⁴⁶ Бердиёров Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар (биринчи қисм). – Самарқанд, 1976. – Б. 12-13.

⁴⁷ Rakhmonova D. // Nemis va o'zbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi <http://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/757>.

⁴⁸ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 16.

⁴⁹ Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 264.

ekspressivlikni ta'minlashi kabi belgilar bilan birga ibora tarkibiga kiruvchi so'zlarning yaxlit holda bir ma'noni ifodalashi va ko'chimning mavjudligi ularning boshqa barqaror birikmalardan ajratib turuvchi asosiy belgilar hisoblanadi.

A.Mamatov ham o'z monografiyasida bu haqida to'xtalib quyidagi fikrlarni bayon qilgan, frazeologik birlik bo'lishi uchun so'zlarning turg'un birlashmasi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatishi shart. Shuning uchun ham frazeologizmlar alohida rasmiylashgan, obrazli va ko'chma ma'no ifodalaydigan til birliklaridir⁵⁰.

Yana bir hanuzgacha tilshunoslikda bahsli bo'lib kelayotgan muammolardan biri frazeologizmlar tarkibiga kiruvchi ibora va idiomalarning o'zaro farqli jihatlarini ajratish masalasidir. Bunday muammoning yuzaga kelishiga sabab har ikkala lingvistik vositalarning ham o'xshash tomonlari borligidir. Masalan, har ikkalasi ham nutqqa tayyor holda kiritiladi, ko'chim va obrazlilik mavjud, imotsional-ekspressivlikni ta'minlaydi. Lekin ular o'rtasida farqli jihatlar borligi aniq, aks holda ikkalasi ham alohida terminlar bilan nomlanmas edi. Yaqin davrgacha ushbu ikki termin farqlanmas, bir-biridan ajratib ko'rsatilmamas edi. XX asrning 40-yillariga kelib idiomalar haqidagi qarashlar yuzaga kela boshlagan. S.Tarabrinaning yozishicha ilk marotaba bu termin ingliz tilshunosi L.P.Smit tomonidan qo'llangan. Idiomalar allaqachon jahon tilshunosligida keng qamrovda o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida yangi tushunchalardan biri hisoblanadi. Idiomalarning iboralardan farqini ko'rsatuvchi bir nechta izohlarga duch kelamiz. Xususan, A.Hojiyev: "Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmaydigan, hatto unga zid ma'no ifodalaydigan frazeologik birliklar"⁵¹, deya ta'kidlasa, I.Ermatov va N.Mahkamovning "Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati"⁵²da idiomalar kengroq izohlangan "Idioma - (yunoncha **idioma** o'ziga xos ifoda ibora) shaklan mantiqqa to'g'ri kelmaydigan fikr, voqea, hodisalarning ifodalanishi. Ular ma'lum tilgagina xos bo'lib, boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Masalan, ammanning

⁵⁰ Mamatov A. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 21.

⁵¹ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 125.24.

⁵² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилдли. II жилд. – М.: Рус тили нашриёти. 1981. – Б. 174.

buzog‘i, gapning po‘st kallasi, yuragi shuv etib ketdi⁵³ kabi. Shuningdek, taniqli tarjimon, rahmatli G‘.Salomov o‘zining “Til va tarjima” asarida idiomalar haqida quyidagi mulohazalarnikeltirib o‘tadi:

birinchidan, sintaktik jihatdan gap bo‘laklariga bo‘lib bo‘lmaydi, ya’ni tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi idiomasini tarvuzi-ega, tushdi-kesim, qo‘ltig‘idan-to‘ldiruvchi tarzida tahlil qilish imkonsiz;

ikkinchidan, idiomalarni boshqa tillardan aniq tarjima qilish mumkin deb quyidagi o‘zbek tiliga rus tilidan tarjima asosida kirib kelgan: “*pir g‘alabasi, amerika ochmoq, xitoy devori, g‘alvir bilan suv tashimoq, qizil ip bo‘lib o‘tmoq*”⁵⁴ kabi idiomalarni misol keltiradi.

uchinchidan, idiomalar jamiyatdagi narsa, voqea, hodisalarga nisbatan bog‘liqlik mavjud emas. Misol uchun, *tuyaning dumi erga tekkanda, toshbaqa tog‘ga chiqqanda kabi*;

to‘rtinchidan, idiomada hech qanday xalq hikmati yo‘q, faqat ko‘chma ma’noda ishlatiladigan barqaror so‘z birikmasidan iborat.

Yuqoridagi izohlardan ibora va idiomalarning farqlari xususida shunday xulosa qilish mumkin:

1) iboralar tarkibidagi har bir so‘z yaxlit holda ko‘chma ma’no hosil qilinayotgan so‘zni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi, masalan, *yog‘ tushsa yalagudek* iborasi tarkibidagi uchala so‘z ham birgalikda “toza” ma’nosini beryapti, ya’ni shunchalik tozaki, h atto yog‘ tushsa ham yalab olgudek;

2) iboralar, asosan, kundalik muloqotda ko‘p qo‘llaniladi va eslab qolish oson bo‘lib, fikrni obrazli ifodalaydi: *ilonning yog‘ini yalagan-mug‘ombir, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan-yuvosh*;

3) iboralar ifodalayotgan ma’no jamiyatdagi voqea-hodisalar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi: “qovun tushirmoq” birikmasi qovunni qo‘ldan tushirib yuborish,

⁵³ Махкамов Н., Эрматов И. Тилшунослик терминлари изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 47

⁵⁴ Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Ўзбекистан ССР Фан нашриёти, 1966. – Б. 262.

ehtiyotsizlik qilish holatini ifodalaydi. Ehtiyotsizlik qilish tufayli qovunni tushirib yuborish tabiiyki, kishilarda salbiy imotsiyani yuzaga keltiradi. Mana shu voqelikni obrazli ifoda etish asosida qovun tushirmoq erkin bog‘lamaning “suhbat mavzusiga qovushmaydigan, noo‘rin gap so‘z aytmoq” [O‘TIL] ma‘nosi shakllanadi⁵⁵. Idiomalarda esa, aksincha, voqea va hodisalarning sodir bo‘lishi imkonsiz, masalan, *qizil qor yoqqanda* kabi.

4) iboralar doimo ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi, idiomalarni esa bir so‘z bilan ham ifodalash mumkin: tuzladi-gap bilan boplamoq, boplab jazolamoq.

Umuman olganda frazeologiyani keng ma‘noda tushunish masalasi bugungacha munozarali bo‘lib qolmoqda. Muammoni keng va tor talqin qilishdan qat‘iy nazar har ikki yo‘nalishdagi tadqiqotlar ushbu fan oldida turgan masalalarni chetlab o‘tolmaydi. Frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan

- frazeologizmning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;
- frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash;
- frazeologizmlar tarkibida qo‘llanuvchi so‘zlar va ularga xos ma‘nolarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- frazeologizmlarning so‘z turkumlari bilan o‘zaro munosabatlarini oydinlashtirish;
- ularning sintaktik rolini aniqlash;
- frazeologik birliklar tarkibida so‘zlarning yangi ma‘nolari hosil bo‘lishini o‘rganish, frazeologik birliklarni ajratish, ularni o‘rganish, tasniflash va lug‘atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi.

Ko‘rinib turganidek ibora va idiomalarning bir nechta farqlari bor, bu farqlarni ajratish biroz mushkul vazifa bo‘lib kelmoqda, mazkur vazifani bajarish ustida ko‘pgina tilshunos olimlar tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Frazeologizmlar keng

⁵⁵ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 89.

miqyosda o‘rganilib, tadqiq qilinganligiga qaramay uning obyektini belgilashda turli xil farazlar bor. Frazologizmlar doimo ko‘chimga ega ekanligi hamda obrazlilik uni boshqa birliklardan ajratib turuvchi asosiy omillar hisoblanadi.

2.2. Raqamlar bilan bog‘liq frazeologizmlarning semantik xususiyatlari

Har bir inson so‘zlash jarayonida o‘z nutqining chiroyli, boy va ifodali bo‘lishini xohlaydi. Bunga erishish uchun frazeologizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Frazelogik birliklar insonlarning hayot tarzi, yashash sharoiti, qayg‘usi, xursandchiligi, qiziqishi, urf-odat va an‘analari, axloqiy va estetik madaniyatini aks ettiruvchi birlikdir.

Dunyo rivojlangan sari raqamlar ham hayotimizning turli jabhalarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bejizga XXI asr “Raqamli dunyo asri” deb nomlanmagan. Bugungi kunda raqamlardan nafaqat matematikada, shuningdek, frazeologiya sohasida ham faol foydalanilmoqda. Sonlar bizni qurshab turgan olamni obrazli va mavhum holda tasavvur qilish imkonini beradi. Ular inson tafakkurining intellektual til xususiyatlarini va madaniyatning ma’naviy o‘zgarmas jabhasini namoyon etishga yordam beradi. Sonlar, ularning barchasi bo‘lmasa ham, simvolik ma’no-mazmun tashiydi va eng qadimgi davrlardan – totemistik e’tiqodlardan to zamonaviy dinlargacha – sonlarning o‘sha sirli xususiyatlari saqlanib qolgan va bu hol tilda o‘z aksini topadi⁵⁶. Raqamlarning frazeologizmlarda ishtirok etishi boshqa tillar kabi o‘zbek tilida ham faol hisoblanadi.

“**Bir**” raqami bilan bog‘liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

“**Bir**” raqami bilan bog‘liq frazeologizmlarning ishtirok etishi boshqalariga qaraganda salmoqliroq bo‘lib, bunda u yagonalik, kam miqdorlilik, yaqin masofa, kabi ma’nolarda qo‘llaniladi.

⁵⁶ Qarang: Schimmel, Annemarie. The Mystery of Numbers. — New York / Oxford: Oxford University Press, 1993. — 314 P.; Numerology. The Use of Special Numbers in the Bible and Other Ancient Myths. Investigating Christianity — <https://sites.google.com/site/investigatingchristianity/home> (August. 2022).

*Bir pul- hech narsaga arzimaydigan, bir tiyinga ham qimmat*⁵⁷ ma'nolarini bildiradi. O'tmishda pul bugungidek umumiy barcha narsalar uchun tovarlarni ayirboshlash vazifasini bajaruvchi birlik ma'nosida tushunilmagan. Balki, juda kam qiymatni ifodalovchi o'lchov birligi sifatida anglashilgan. Vaqt o'tgan sari pulning qiymati juda pastlab ketgan va yarim tiyin, bir tiyinga arzigulik hech narsa sotib olishning imkoni bo'lmagan. Shu tufayli ushbu ibora paydo bo'lgan.

Bitta qaldirg'och kelgani bilan bahor bo'lmas. Ma'lumki, o'zbek xalqida qaldirg'och qut-baraka, ezgulik va bahor elchisi. Biroq qaldirg'och keldi degani bahor kirib kelganini anglatmaydi. Ya'ni biror bir ishning oxirini bilmay turib xulosa chiqarmaslik kerak degan ma'noni bildiradi.

Bir tan-u bir jon bo'lmoq – hamjihat, yakdil bo'lmoq.

Bir qoshiq suv bilan yutib yuborgudek – juda chiroyli, beqiyos go'zal.

Bir so'zi ikkita bo'lmadi – so'zidan chiqmaslik, aytganini qilish.

Bir boshni ikkita qilmoq – uylantirmoq yoki turmushga bermoq.

Bir yostiqa bosh qo'ymoq – turmush qurmoq.

Bir oyog'i to'rda, bir oyog'i go'rda – juda qarib, munkillab qolgan (...yoshini surishtirib: To'qsondan oshibsiz, bir oyog'ingiz to'rda, bir oyog'ingiz go'rda, tinib o'tirmaysizmi, — debdi. (Shukrullo. "Saylanma")

Bir qop yong'oqdek shaldir-shuldur – sodda, ochiqko'ngil, birorta gapni xushchaqchaqlik bilan to'kib soladigan. *Asakada bir qop yong'oqdek shaldir-shuldur qiz deb nom chiqargan Xayri har kuni ko'rib yurgani Nazokatni bugun boshqacharoq sevib qoldi.* (Said Ahmad. "Qadr don dalalar").

Bir zarbda – bir urinishda, bir harakatda amalga oshirilgan ish-harakatlar uchun ishlatiladigan frazeologizm.

Bir qoshiq qonidan o'tmoq – kechirmoq, gunohini afv etmoq.

⁵⁷ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom, 2022. – B. 85.

Esing borida etagingni yop. Menga yigit bo'! *Bir qoshiq qoningdan o'taman*
(Said Ahmad. "Hukm")

Bir tukiga ham arziyaslik – tengi emas, to'g'ri kelmaydi:

*Koshki edi tega olsam, - dedi To'ybeka, men uning **bir tukiga ham arzimayman.***

Bir kamonga ikkita ip- biror bir muvaffaqiyatga erishish yoki birorta vazifani ado etish uchun ikki va undan ortiq usullarning mavjud ekanligi.

Bir kesak bilan ikki quyonni urmoq (varianti bir o'q bilan ikki quyonni urmoq) – bir o'rinishda ikkita ishni amalga oshirmoq.

Bitta gap kam, ikkita gap ko'p – juda nozik,

Itidan bir suyak qarz bo'lib yashamoq – o'ta kambag'al, nochor bo'lib yashash.

Burnini bir qarich ko'tarmoq – dimog'i baland, manmansiragan.

Bir-ikkita yaktakni oldinroq yirtmoq – yoshi kattaroq, ko'proq turmush tajribasiga ega:

*Omon mendan **bir-ikkita yaktakni oldinroq yirtgan*** (G'.G'ulom. "Shum bola").

Bir tiyin ustida ming yumalamoq – o'ta xasis, qizg'onchiq, qurumsuq:

*Ammo xalq hamma narsaga ishonishi mumkin edi-yu, lekin **bir tiyin ustida ming yumalaydigan** boydan bunday gap chiqishiga ishonmas edi* (M. Ismoiliy "Farg'ona tong otguncha")

"Ikki" raqami bilan bog'liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

Ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – vaqt tig'iz bo'lganida harakat qilmoq. Yoki aytilgan vazifani bajarish uchun qistovga olmoq.

Ikki oyog'ini tirab olmoq – qaysarlik qilmoq;

Ikki og'iz gap – ozgina, kam so'zlammoq;

Ikki qo'lini og'ziga tiqmoq – keragidan ortiq darajada hovliqib, hamma ishni birdan bajarishga urinmoq.

Gapini ikki qilmoq – aytilgan vazifani bajarmaslik.

Ikkita kemani ushlagan dengizga g'arq bo'ladi – ikkita ishni birdan bajarmoqchi bo'lgan odamning buni uddasidan chiqa olmasligi.

Ikki qulog'i bilan eshitmoq – diqqat-e'tibor bilan eshitmoq:

Ikki qulog'ing bilan eshit: kimda-kim xalq moliga joni achisa, avtokachkaga minsin (S.Anorboyev. "Oqsoy").

Ikki qulog'im senda / sizda – jon qulog'i bilan eshitishgan tayyor bo'lmoq.

Ikki o't orasida qolmoq – birini deb boshqasidan voz kecha olmaslik, qiyin ahvolga tushmoq, qiyin holatga tushmoq:

Bobur o'zini ikki o't orasida qolganday sezdi. Beklar-u navkarlarning ko'ngliga qaray desa, bu yoqda raiyat ocharchilikdan o'lyapti (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar").

Ikki yamlab, bir yutmoq – chaynamay yutib yubormoq, yo'q qilib yubormoq. *Axir meni ikki yamlab bir yutadi-ku!* (S.Ahmad. "Ufq").

"Uch" raqami bilan bog'liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

Uch pul bo'lmoq – hech narsaga arzimaydigan, qadr-qimmatsiz. Filologiya fanlari doktori, professor Y.Odilovning tadqiqotlariga ko'ra "O'tmishda pul bugungi kundagidek "oldi-sotdi yoki to'lov munosabatida narx, qiymat o'lchovi bo'lgan metall yoki qog'oz belgini, ya'ni 50 ming pul berdim degandagi qog'oz pulni bildirmagan. Balki "ba'zi erlarda yarim tiyinga, ba'zi erlarda bir tiyinga teng o'lchov birligi" [O'TIL. III. 319.]ni – "Handalakni bir pulga, qovunni uch pulga oldim" degandek qiymat miqdorini ifodalagan⁵⁸. *Kimgadir bu – uch pullik narsa, bor-yo'g'i husnbuzar, kimgadir – fojia* (Ch.Aytmatov. "Oxirzamon nishonalari").

Uch-to'rt og'iz gap – kam,oz gap.

"To'rt" raqami bilan bog'liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

⁵⁸<https://oz.sputniknews.uz/20230714/bir-pul-bel-boglab-eng-shimarib-ozbekona-iboralar-manosini-bilasizmi-36793178.html>

To 'rt gapning birida – bot-bot bir xil gapni takrorlamoq.

To 'rt ishkali but – hamma narsasi bor, etishmovchiligi yo‘q:

*Bu odamlar **to'rt ishkali but**, dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydigan, bahuzur yonboshlab yotib, faqat xursandchilik bilan mashg'ul bo'lgan kishilarday bamaylixotir, huzur qilib kulishar edi* (A.Qahhor. “Qo‘shchinor chiroqlari”).

Ko 'zi to 'rt bo 'lmoq – intizorlik bilan, intiqib kutmoq:

Endi dehqon o‘z otasining shahardan qaytishini to‘rt ko‘z bilan kutgan bolalari oldiga qanday boradi?(Oybek. “Qutlug‘ qon”).

To 'rt ko 'z tugallik – barcha oila-a‘zolar sog‘-salomat:

***To'rt ko'z tugallikmi?** – so 'radi chol.*

– Nima qilib yuribsanlar jalada? – deb o 'shqirdi qizlariga (M.Muhamedov. “Kichik garnizon”).

To 'rt tomoning qibla – xohlagan joyingizga ketavering:

*Eshikka chiqing, **to'rt tarafingiz qibla**. Balki o 'sha boyvuchcha xotinga yo 'liqib qolarsiz.* (G‘.G‘ulom. “Tirilgan murda”).

Sonlar frazeologik birliklarning shakllanishida faol qo‘llaniladi. Sonlarning ramziy yoki madaniy ma‘no ifodalashi bu ularning frazeologizmlarda qo‘llanilishi, shuningdek, ayrim milliy tillarda yashovchanligini oshiradi.

Agar besh raqami bilan ifodalangan frazeologizmlarga e‘tiborga bersak, ular ko‘pchilikni tashkil etadi.

“**Besh**” raqami bilan bog‘liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

Besh qo 'l barobar emas – ushbu iborada barcha odamlarning bir xil emasligi, ular ichida yaxshi va yomonlarning mavjudligi aks etgan.

Besh barmog 'iday – batafsil, aniq, mayda-chuydasigacha biladi:

*Butun tuman paxtasining past-balandi sizga **besh barmoqday ma 'lum*** (Oybek. “Oltin vodiyan shabadalar”).

Besh ketmoq – lol bo‘lmoq, ishning uddasidan chiqadigan, qoyillatib bajaruvchi insonlarga nisbatan qo‘llaniladigan frazeologizm:

Sizning tantiligingizga, mardligingizga besh ketaman-da, doim va’dangiz ustida chiqasiz.

Besh barmog‘ini birdan og‘ziga tiqmoq – barcha ishni birdan bajarishga urinmoq, lozim bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq narsani bajarishga intilmoq.

Besh battar – biror narsaning avvalgidan ham yomon bo‘lib ketmoq.

Besh kunlik dunyo – dunyoning o‘tkinchiligi, tez o‘tib ketadigan qisqa umr: *Iching, Salimjon, iching, Abdushukur! – xitob qildi Jamolboy, – Besh kunlik dunyoni kayfi chog‘lik bilan shiringina o‘tkazish kerak* (Oybek. “Qutlug‘ qon”).

Besh-olti og‘iz so‘z aytmoq – bir qancha gap gapirmoq. Bolam, endi meni yo‘ldan qoldirding-ku, shunday bo‘lsa ham besh-olti og‘iz so‘zni aytib ketayin. (“Ravshan” dostoni)

Besh-olti qovun pishig‘i bor – bir necha yil bor. Siz aytgan gaplarning amalga oshishiga besh-olti qovun pishig‘i borgan o‘xshaydi (Sharq yulduzi).

Besh-oltita ko‘ylakni oldinroq yirtmoq – nisbatan yoshi kattaroq bo‘lgan kishilarga qo‘llaniladi.

Turkiy qavmlar madaniyatiga aloqador qator tadqiqotlarda til tizimida sonlarni ifodalovchi so‘zlar asosiy ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Bular:

- 1) sakral (mo‘jizaviy ahamiyatga ega) sonlar
- 2) an’anaviy.

Turkiy xalqlarning aksariyati kabi o‘zbeklarda ham *olti, etti, to‘qqiz, qirq, to‘qson, ming* kabi so‘zlar ramziy qiymat va miqdor ifodalovchilar⁵⁹ hisoblanadi. Kundalik hayotda ham, an’analarda ham, xalq og‘zaki ijodida ham bu sonlar voqea-hodisa, jarayonlar, tadbirlar, tilaklar, orzular, murod-maqсадlarning o‘lchovi sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqa sonlar siyrak ishtirok etilishi ko‘riladi⁶⁰.

⁵⁹ Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида “сеҳрли” рақамлар. – Т.: Фан, 1991. – Б. 53.

⁶⁰ Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида “сеҳрли” рақамлар. – Т.: Фан, 1991– Б. 116.

“**Olti**” raqami bilan bog‘liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

Olti yashardan, oltmish yashargacha – yosh-u qari bari.

“**Yetti**” raqami bilan bog‘liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

Yetti iqlimda ham topilmaydi – hech qayerda yo‘q, mavjud emas:

Bunday tuyg‘un, bunday ziyrak bunday boadab qiz etti iqlimda ham topilmaydi (Oybek. “Qutlug‘ qon”).

Yetti nomusini erga bukmoq – hammaga sharmanda qilmoq. Varianti: nomusi buzildi.

Axir, – dedi kampir, – men endi qanday qilaman? Yetti nomusini erga bukding, juvonmarg! (G‘.G‘ulom. “Yodgor”).

Yetti pushti – bir nechta o‘tgan ajdodlari:

Qadimgi sovchilar kuyov bo‘lmishning yoki kelin bo‘lmishning etti pushtini surishtirishar ekan. Balki odamning nasli etti avlodda o‘zgarar? Shu rost bo‘lsa, g‘o‘zani ham olti-yetti avlodini koinotda etishtirish kerakdir? (T.Malik. “Charxpalak”).

Yetti uxlab tushiga kirmaslik – umuman xayoliga keltirmaslik, kutmaslik. Hozir *Nasibaning meni hech qachon sevmaganligiga aminman. Lekin u chog‘larda bu fikr etti uxlab tushimga ham kirmagan edi* (O.Yoqubov)

Yetti yashardan etmish yashargacha - katta-kichik; hamma.

Ellikboshimiz qanaqa odam? Butun mahallaning otasi. Yetti yashardan etmish yashargacha unga salom beradi (Oybek. “Qutlug‘ qon”).

Yetti yot begona – umuman tanish bo‘lmagan, notanish kimsa.

Boshqa bir ayol esa, to‘qqiz oy ilgarigi oniy lazzatlarini la‘natlay-la‘natlay go‘dakni bag‘ridan yulib, etti yot begonalarga tashlab ketadi. Zamon og‘ir bo‘lganda tushunish mumkin edi (T.Malik. “Charxpalak”).

“**Sakkiz**” raqami bilan bog‘liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

Sanamay sakkiz dema – bilmay turib erta xulosa chiqarma ma’nosidagi ibora. *Sultonovning aytishiga qaraganda, er ham oriq, kucham yo‘q... Sultonov sanamasdan sakkiz deydigan odam emas-ku!* (Sh.Rashidov. “Bo‘rondan kuchli”).

“**To‘qqiz**” raqami bilan bog‘liq frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari.

To‘qqiz pul – hech narsaga arzimaydigan, arzimas pul. Sog‘lig‘ing bo‘lmasa, bu davlating to‘qqiz pul. To‘qqiz pulga qimmat odam.

To‘qqiz puldek qilib tushuntirib (yoki tugib) bermoq – *Juda oddiy qilib tushuntirib bermoq. Hushyor savdogar uchun elchining bir imosi kifoya qildi, unga gapni to‘qqiz puldek qilib tugib berishning hojati yo‘q edi* (M.Osim. “Elchilar”).

Shunday qilib, dunyodagi aksariyat millatlar kabi Markaziy Osiyo xalqlari folklori, tili va an’analarda ba’zi raqamlarning muqaddasligi, sehliligi haqida tushunchalar bor⁶¹. Raqamlar bilan bog‘liq frazeologizmlar kundalik turmushda, an’analarda, badiiy adabiyotlarda, folklor asarlarda ham keng qo‘llaniladi.

Raqamlar bilan bog‘liq frazeologizmlar boshqa xalqlar tilshunosligida o‘rganilgan bo‘lsa-da (masalan, M. Abdurahmonova “Turkman tilida son komponentli turg‘un brikmalar”) o‘zbek tilshunosligida bu borada hali etarlicha ishlar amalga oshirilmagan. Biroq, agar ilmiy jihatdan tahlil qilinsa son komponentli frazemalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Lekin ularning ishlatilishi taxminiy va hisobi noaniqdir.

Raqam frazeologizmlar insonlarning ichki hamda tashqi belgilarini o‘zida aks ettiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida raqam frazeologizmlarda 10 gacha bo‘lgan sonlar faol ishtirok etadi. Ushbu tadqiqot natijasida son komponentli iboralarning ramziyligi aniqlanadi va ularning semantikasi ochib berildi.

⁶¹ Ahmedov H. “Alpomish” dostonida frazeologizmlarning tematik va mifologik strukturasi. Fil.fan.b.fals.dok.dis. ... - Termiz, 2023. – B. 114.

2.3 Badiiy asarlarda qo‘llanilgan muallif frazeologizmlari

Frazeologizmlar asrlar davomida taraqqiylashib, xalqning turmush tarzini, o‘tmishini, madaniyatini ochib beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Frazeologizmlarning takomillashib, umumtil leksikasida o‘rnashib borishi ularni har tomonlama tadqiq qilish imkonini beradi. Grammatik shakllangan, tilda turg‘un, barqaror yashovchi, obrazlilikni ifodalovchi bu kabi birliklar nutqimizni yanada jozibali qilish uchun xizmat qiladi. Ba’zida frazeologizmlar orqali yangi obrazlarni yuzaga keltirish va shu orqali yangi tushunchalarni ifodalash ihtiyoji yuzaga keladi. Ayrim mualliflar badiiy asar yozish chog‘ida umumtilda shakllangan frazeologizmlarning tashqi hamda ichki jihatlarini o‘zgartirish, obrazlilikni oshirish maqsadida boshqa bir variantdosh yoki sinonim frazeologik birliklarni kashf qilishadi. Bu narsa tilimizning yanada boyishiga yordam beradi. Umumtildagi frazeologizmning obrazlilikni oshirish, ta’sirchanlikka erishish, nutqni ko‘rkamlashtirish maqsadida yangi frazeologik birikma yaratiladi. A.M.Babkin “muallif frazeologizmlari nafaqat milliy til frazeologik boyligi, shuningdek, adabiy tilning stilistik imkoniyatlarini ham ifodalovchi asosiy omillardan biridir” deb e’tirof etadi. Olim B.Yo‘ldoshevning individual muallif frazeologizmlar haqida quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Tildagi frazeologizmlarning taraqqiyoti va boyishi, tilning boshqa birliklarida bo‘lganidek, faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo‘lishi bilan emas, balki mavjud iboralarning semantik, grammatik va funksional jihatdan yangilanishi asosida ham sodir bo‘ladi”.

Muallif iboralarning hosil bo‘lishi umumtildagi frazeologizmlarning ifoda va mazmun tomoni yoki ba’zan har ikki jihatning o‘zgarishi natijasida vujudga keladi. Mualliflar umumtil frazeologizmining leksik tarkibini, semantik ifodasini yoki leksik-semantik xususiyatini o‘zgartirish asosida yangi frazeologizmlarni shakllantirishi mumkin. Shuning uchun ham muallifli frazeologizmlar shakllanishning quyidagi uch xili farqlanadi:

- a) leksik o'zgarishli;
- b) semantik o'zgarishli;
- v) leksik-semantik o'zgarishli bo'ladi.

Masalan, **bayt-u g'azal-u o'qimoq-dard-hasrat bayon qilmoq** iborasi Abdulla Qahhor tilida **bayt-u g'azal aytmq** shaklida o'zgartirib qo'llanilgan bo'lib, leksik o'zgarishga misol bo'ladi. *“Zulfiqorovning xotini uyidan haydab yuboribdi. Qalandarovning nomiga aytmagan bo'lsa ham, “suyangan tog'i” sha'niga qancha baytu g'azallar aytibdi”* (A.Qahhor. “Sinchalak”).

Ichi (ichagi) uzilib ketmoq – frazeologizmi umumtilda juda ko'p kulmoq ma'nosini berish maqsadida qo'llaniladi, lekin O'.Hoshimov o'z asarida uni och qolmoq ma'nosida ishlatish orqali semantik o'zgarishli frazema hosil qiladi:

- *Bora qol, qizim, hammasining ichi uzilib ketgandir* (O'.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”).

Umumxalq tilidagi **sir boy bermaslik** iborasi yozuvchi Shuhrat ijodida **tilini bermaslik** ko'rinishida uchraydi. Bu leksik-semantik o'zgarishga uchragan frazema hisoblanadi.

- *Albatta-albatta! – shoshib qoldi Mirsalim. Lekin tilini bermadi* (Shuhrat). Shuningdek, tilimizdagi **o'pkasini qo'ltiqlamoq, o'pkasini qo'lga olib** iboralari mavjud. Uning ma'nosi shoshqaloq, hovliqma kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Adib T.Po'latning «Ichkuyov» asarida u **o'pkasini cho'pga ilmoq** tarzida o'zgartirilgan. *Hamma joyda siz haqingizda mish-mish gap. Javloniy esa o'pkasini cho'pga olgan.*

Ma'lum bir muallif frazeologizmlarning shakllanishida yangi obrazlarni yuzaga keltirish, yangi ma'no hosil qilish, ta'sirchanlikni yanada oshirish maqsad qilingan bo'ladi. Misol uchun yozuvchi S.Ahmad *“o'z o'tiga o'zi yonib yotmoq”, “miyasini parmalab turmoq”, “ota er-xotin orasiga qorabotir bo'lib tushdi”* kabi yangi tarkibli frazeologizm hosil qilgan.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, yozuvchi yangi qo'llayotgan frazeologizmi umumtildagi frazmadan tamoman uzoqlashgan holda qo'llay

olmaydi. Ya'ni umumtildagi frazema individual muallif frazeologizmi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'quvchi yangi shakllangan frazeologizmning ma'nosini fahmlay olmaydi. Masalan, yozuvchi Shuhrat umumtildagi *yulduzi juft tushgan* frazeologizmini *yulduzi o'ng kelgan* tarzida qo'llab, yangi strukturali frazeologizmini yaratgan. Ular sevishib turmush qurishgan yulduzlari juda o'ng kelgan bir-birlarini ko'pdan sinashgan kishilardek fazilatlarini oshirib, nuqsonlarini yashirib, boshqalar havas qilgudek tinch-totuv yashashdi.

Individual muallif frazeologizmlarning paydo bo'lishi muallifning qanday maqsadni ko'zlaganiga ham bog'liq holda bo'ladi. Misol uchun, umumtildagi *ko'ngli g'ash bo'ldi* iborasini “*Shuhrat ko'nglida qori erisa ham muzi qoldi*” shaklida o'zgartiradi. Bu orqali ma'noni yanada kuchli va obrazli qiladi.

Yozuvchilar yangi frazeologizmlarni yaratganda xalq tilidagi frazeologik birliklarning tarkibini qisqartirish, kengaytirish yoki butunlay iborani o'zgartirish orqali ham shakllantiradi.

Masalan, yozuvchi R.Fayziy umumtildagi “*achchig'i burnining uchida turmoq*” frazeologizmini “*burnining uchida*” shaklida qisqartirib qo'llagan.

Toshpo'latovning jahli chiqib, qizarib-bo'zarib ketgan edi. Burnining uchida turadi-ya, erga qarab xotin, degan gap bor. U ham sening obro'yingni qiladi-da, shuniyam tushunmadingmi deya suv sepib qo'ydi (R.Fayziy). Bundan tashqari nonini tuya qilmoq-tuya qilmoq ; ona suti og'zidan ketmagan – ona suti og'zida, tegirmonga tushsa butun chiqmoq – tegirmondan butun chiqmoq, tepa sochi tikka bo'ldi – sochi tikka bo'ldi kabi frazeologizmlarning qisqartirilgan shakli ham kengaytirilgan iboralar beradigan ma'noni bera oladi. A.Navoiyning poetik asarlarida qo'llanilgan frazemalarini o'rgangan E.Umarov “baloyi jon bo'lmoq – baloyi jon”, “bag'rini suv qilmoq (varianti: bag'rini qon qilmoq) bag'ri suv”, “bag'riga tosh bog'lamoq – bag'ritosh”, “ko'z ichi birla boqmoq – ko'z ichi birla”, “zer-u zabar qilmoq – zeru zabar” singari to'liq va qisqargan iboralarni shoirning frazemalardan ijodiy foydalanishi, ayrimlarini esa iboralarning Navoiy tomonidan individual-avtor iboralari

deb hisoblaydi. Biroq, ehtimol, Alisher Navoiy bu kabi frazeologizm qisqarishlarini she'riy qonuniyat tufayli hosil qilgan bo'lishi ham mumkin.

B.Yo'ldoshev frazeologizmlarni kengaytirishning bir qancha usullarini ko'rsatib o'tadi:

1. Iborani oddiy qo'llanishdagi so'z bilan kengaytirish usuli. Bunda iboralarning grammatik va semantik jihatdan munosabatga kirisha oladigan so'zlar bilan birgalikda kengaytiriladi:

Senga duch kelgan qizning sho'ri qursin. Og'ziga qulf, qo'liga zanjir, oyog'iga kishan solar ekansan. (Shuhrat).

2. Ibora tarkibiga izohlovchi so'z yoki o'xshatish kiritiladi:

Qalbi vayron bo'lgan, umidlari sovun ko'pigidek sassizgina o'chgan onaning xayollari so'ngsiz edi (Said Ahmad. "Ufq").

3. Tasdiq-inkor yo'li orqali kengaytirish.

Ushbu usulda ibora tarkibidagi ot so'z turkumidan keyin *emas* so'zi qo'shiladi:

Hozir faqatgina *it emas*, eshak ham egasini tanimaydi, dilni *xufton emas*, xushnud etmoq.

Ayrim hollarda frazeologizmlarning tarkibiga bir nechta so'zlarni yoki so'z birikmalarini qo'shib kengaytirish orqali ham yangi tarkibli frazeologizm hosil qilish mumkin.

Ofitserdan ko'ra soldatni yaxshi ko'radi. Arqonning kuchi qildan, armiyaning kuchi soldatdan, - deb erkalar (Shuhrat).

Yuqoridagi matnda yozuvchi *arqonning kuchi qildan* frazeologizmiga uning ma'nosiga yaqin bo'lgan **armiyaning kuchi soldatdan** frazeologizmini qo'shgan. G'.G'ulom ham ushbu holatda yangi frazeologizmlarni yaratgan:

"Shunday qilib desangiz buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi", "Omon uyqudan chap yonboshi bilan turdi. Qovog'ining peshayvoni tushib ketgan, to'g'ri gapga ham tersayib javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq

edi. Xalq tilidagi siri ochilmoq va qovog‘i tushib ketmoq frazeologizmlari shu tarzda hosil qilingan”.

Umumxalq tilidagi frazeologizmlarning tarkibini qisqartirish orqali ham yangi frazeologizm hosil qilish mumkin.

Puch yong‘oqning narxi necha puldan bo‘ldi?

- Tsss. Devorning qulog‘i bor-a. (Shuhrat).

Ko‘rinadiki, “puch yong‘oq” komponenti qo‘llanishi bilan tildagi **“qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq”** frazeologizmiga ishora etiladi. Buni o‘quvchi darhol anglab oladi. Yozuvchi “puch yong‘oqning narxi necha puldan bo‘ldi” deyish bilan yolg‘on gap xususida fikr yuritadi⁶²

Yangi tarkibli frazeologizm hosil qilish uchun ba’zida frazeologizmni takror qo‘llash orqali ham shakllantirish mumkin.

Ancha yurilgach, Solijon charchadi shekilli, o‘rnidan turib, o‘tirganlardan biriga, “ma, bir oz ushlab tur arqonni” demoqchi bo‘lib og‘iz juftladi-yu, lekin og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qoldi (R.Fayziy).

Yana shuni qayd etish joizki, ba’zida bir frazeologizm bilan birga bir necha frazeologizmlarni birga qo‘llash orqali, ya’ni darajalantirish hisobiga ham yangi muallifli frazeologizm shakllantirish mumkin:

Bular kecha oyog‘ingni bosgan edi, bugun ko‘kragingga oyoq bosib turibdi, ertaga bo‘g‘zingga oyoq qo‘yadi. O‘lasan. Jon kerakmi? Jon kerak bo‘lsa, o‘limga chap berish payida bo‘l: Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq (A.Qahhor).

Ushbu misolda **oyog‘ini bosmoq** frazeologizmi bilan birga **ko‘kragiga oyoq bosmoq, bo‘g‘ziga oyoq bosmoq** frazeologizmlarini keltirish orqali adib darajalantiryapti. Yana quyidagi gaplarda ham shu holatni ko‘rish mumkin. “O‘rgating, zora osmonga ustun, ko‘rpaga eng, hovuzga qopqoq, oshpichoqqa qin chiqarishsa kamimiz shu edi” (M.Ismoilij); “Ko‘krak kerib, yigitlik davrini endi surayotgan paytda “Soyib changal”, “Soyib asrandi”ga aylansa, bu yuziga qora kuya

⁶² Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 215.

surtilgani, sharmandayi sharmisor bo‘lgani nomusining bukilgani. Bu qorong‘i go‘rga kirgani. Ha-da. Yigit kishining uyalgani, o‘lgani. (S.Anorboyev).

Individual muallif frazeologizmlarini hosil qilishning turli xil usullarini ko‘rish mumkin. Yana bir shunday usul borki bu: frazeologizm tarkibidagi so‘zlardan birini uning o‘rniga sinonimini qo‘llash orqali hosil qilishdir. Gap tarkibidagi frazeologik birliklar o‘zidan oldingi yoki keyingi so‘z bilan munosabatga kirishganda, ba‘zan o‘sha gapga aniqlik kiritishni, o‘sha sharoitga moslashishni talab qilgan hollarda frazeologik birliklar komponentlaridan biri boshqa so‘z bilan almashtiriladi, natijada yangi individual-muallif ko‘rinishi vujudga keladi. Tildagi peshona(si)ga bitmoq frazemasi “Sohibqiron” dramasida manglay(i)ga bitmoq tarzida qo‘llanadi. Frazema tarkibidagi “peshona(si)ga” komponentini uning og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xoslangan sinonimi“ manglay(i)ga” so‘zi bilan almashtirilishi frazemaning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan hamda birinchi frazemaning leksik varianti vujudga kelgan: Kishilikning manglayiga bitgan shoirni//Sohibqiron Amir Temur qabul aylagay.(A.Oripov)⁶³.

Ba’zi bir mualliflar xalq og‘zaki ijodi, folklor namunalaridagi frazeologik birliklarni o‘z asarlarida o‘zgartirib qo‘llash orqali ham yangi frazeologizmlar hosil qilishadi. Masalan, Hamza, Abdulla Qahhor, Sadriddin Ayniy, Said Ahmad, Cho‘lpon, Fitrat, Oybek, Abdulla Qodiriy ijodiyotida bu kabi frazeologizmlarni ko‘plab uchratish mumkin. “*Boshida kulfat chaqmog‘i o‘ynamoq*”, “*boshiga jahannam ofatni ag‘darmoq*”, “*tirikchilik qozonining girdobida charx urmoq*” (Oybek), “*Ko‘z – yurak ko‘zgusi, qo‘l – yurak navkari*” (M.Shayxzoda), “*O‘ng qo‘lim, so‘l qo‘lim -bari o‘z qo‘lim*”, “*gapni tonnalab olib, gramlab sotmoq*”, “*igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o‘tirmoq*”, “*odamning chiqiti bo‘lmaydi*” (A.Qahhor), “*Dil rost bo‘lsa*

⁶³ Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Фил.фан. номз. автореф. – Тошкент 2009. – Б. 20.

– yuz qizil, dilga yuz ko‘zgu bo‘lur” (G‘.G‘ulom), “Ko‘nglida qori erisa ham muzi qoladi” (Shuhrat) kabilarni misol sifatida keltirish mumkin⁶⁴.

Shunday qilib, bugungi kunda frazeologizmlar har tomonlama tadqiq etilmoqda. Ularning shakllanish va uslubiy imkoniyatlari keng bo‘lib, so‘z ustalari o‘z asarlarida umumxalq tilidagi frazeologizmlarni mazmun va ifodaviy o‘zgartirib qo‘llash orqali tilning frazeologik tarkibini boyitish uchun xizmat qilishgan. Bu tilimizning yanada jozibador, ifodali va ma‘noli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Bobga doir xulosalar

Ushbu bobda frazeologik tizimning tarkibiy va ma‘noviy shakllanish jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklarning shakllanish va paydo bo‘lishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunga qadar frazeologizmlarning shakllanishi sinxron tarzda o‘rganib kelinmoqda. Chunki ko‘pchilik frazeologik birliklar xalq tomonidan yaratilgan bo‘lib, xalq ijodiyoti mahsuli. Ularning kelib chiqishi haqida ma‘lumotlarni topish mushkul. Lekin shunisi muhimki, frazeologik birliklar xalq bilan birga yashab kelayotir.

Frazeologizmlarda raqamlar ramziy ma‘noga ega bo‘lib, frazemalarda belgi vazifasini bajaradi. Raqamlar frazeologik birliklarda asosiy tayanch so‘z hisoblanib, ular qahramonlarni, xatti-harakatlarni va afsonaviy holatlarni keltirib chiqaradi. Raqam ot bilan birikib u bilan birga sintaktik birlik hamda iboraning boshqa so‘zlar bilan birikib semantik xususiyatini yuzaga keltiradi.

O‘zbek tilida frazemalarning ko‘pi insonlarning hayoti, turmush tajribasi, jismoniy faoliyati bilan bog‘liq holda yaratilgan. Shuning uchun ham o‘zbek tili frazeologizmlarida milliy leksemalarning ishtirok etishi faol hisoblanadi. Chunki frazeologizmlar milliy o‘ziga xosligini o‘zida namoyon etadi. Shu tufayli frazeologik birliklarning salmoqli qismi milliy xarakterga egadir. Xalqimiz o‘zining turmush tarzi, hayotiy ehtiyojlari, milliy-madaniy an‘analari asosida yangi-yangi frazeologizmlarni

⁶⁴ Йўлдошев Б. Фраzeологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ, 1999. – Б. 30.

yaratishda tilning barcha boyligidan keragicha foydalanadi. Shuning uchun ham milliy xarakterli frazeologizmlarning yuzaga kelishi uchun birinchi asos xalqning turmush ehiyoji, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar va hayotiy tajribalardir.

III BOB. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI O‘RNI

3.1. O‘zbek leksikografiyasida frazeologizmlarning o‘rni

Frazeologizmlarni o‘rganish va tadqiq qilish masalasi qadimdan tilshunoslarni qiziqtirib kelgan. Turli xil tillarda gaplashuvchi mamlakatlarda shaklan va mazmunan bir-biriga o‘xshaydigan maqol, frazeologizmlar, idiomalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunday vaqtda ularni o‘zga tilga tarjima qilish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Shu sababli frazeologik birliklarni boshqa tilga tarjima qilish uchun lug‘atlar tuzishni taqozo etadi.

Frazeologizm sohasi o‘rganilar ekan tildagi frazeologizmlarni bir erga jamlab lug‘at tuzish zaruriyati yuzaga keladi. Frazeografiya bu vazifani bajaradi. Xususan, frazeografiya sohasining o‘rganilishi qadimga borib taqaladi. R.Rasulov, B.Yo‘ldoshev, H.Berdiyorovlarning yozishicha dastlabki turkcha frazeologik lug‘at 1480-yilda yozilgan. Ushbu kitobni 1936-yilda Valet Izbdak Anqarada nashr ettirgan. Frazeografiya - frazeologizmlardan lug‘at tuzishni, frazeologik birikmalar tamoyilini o‘rganuvchi soha. Rus lug‘atshunosi V.P.Berkov o‘zining ikki tilli leksikografiya muammolariga bag‘ishlangan asarida ikki tilli lug‘at yozuvida so‘z ma‘nosini joylashtirishga qo‘yiladigan talablar haqida yozgan va ikkinchi tildagi bosh so‘zning semantik tuzilishi tavsifi bir tilli lug‘atdagi bilan to‘liq mos kelishi kerakligini aytib o‘tadi. Frazeologizmlar lug‘atshunoslikda XIX asrning boshida keng miqyosda o‘rganila boshlangan. Bunda u til birligi sifatida ilmiy tadqiq qilindi va alohida til birligi sifatida shakllantirildi. Aytib o‘tilganidek, frazeografiyani o‘rganish ancha oldin boshlangan va bir qancha leksikografik manbalar shakllantirilgan. Bu manbalar keyinchalik frazeologik birliklarning boshqa jihatlari bo‘yicha ilmiy ishlar qilinishi uchun samarali turtki bo‘lib xizmat qildi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida frazeologizmlarni tarjima qilish uchun tarjima lug‘atlar ko‘plab nashr etilgan. Misol uchun, AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Buyuk Britaniya kabi yirik mamlakatlarda bir tilli, ikki tilli,

uch tili hamda ko‘p tilli lug‘atlardan foydalanib kelinmoqda. Rossiya davlati tarjima lug‘atlar yaratishda ilg‘or mamlakat hisoblanadi. Turli xil tillardagi frazeografiya sohasi bo‘yicha gap ketar ekan, A.V.Kunin, V.M.Mokiyenko, A.M.Melerovich, Y.F.Arsenyeva, A.Makkey, V.N.Teliya, L.K.Bayramova, I.I.Turanskiy, J.Vanin, M.B.Arnold (frazeologik ma‘noning konnotativ va aksiologiya tarkibi to‘g‘risida), N.Isanbet, A.I.Molotkov, Y.N.Karaulov, Y.D.Apresyan, M.A.Aleksenko, N.F.Aleferinko, V.I.Zimin, M.I.Umarxo‘jayev, R.Makin, R.L.Kollinz (frazeologik lug‘at tuzish prinsiplari) kabi⁶⁵ olimlarning tadqiqotlari alohida ahmiyat kasb etadi. Jumladan, V.Kunin tomonidan 1968-yilda 25 mingdan ziyod frazeologik birliklar to‘plangan inglizcha-ruscha tarjima iboralar lug‘ati, shuningdek, V.V Gurevich va J.A.Dozoretsning ruscha-inglizcha frazeologik lug‘ati 2004-yilda Moskvada nashr etilgan ruscha-inglizcha lug‘ati. Mazkur lug‘atga ikki mingga yaqin frazeologizmlar kiritilgan. Hozirgi kunda ruscha-inglizcha lug‘at tarkibiga besh mingta frazeologizm kiritilgan.

Gurevichand Dozorets tomonidan 1988-yilda tuzilgan qisqa ruscha-inglizcha lug‘ati tarkibiga 1000 ta ibora kiritilgan va bu lug‘at Moskvada nashr etilgan. Ushbu lug‘at barcha kamchiliklarni chetlab o‘tgan bo‘lib, rus tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan frazeologizmlar asosida shakllantirilgan. Rus frazeografiyasiga oid yana bir yirik lug‘atlardan biri 1995-yilda L.E.Binovichning “Немецко-русский фразеологический словарь” lug‘ati hisoblanadi. Ushbu lug‘atga 15000 ta frazeologizm kiritilgan. Lug‘atning afzallik tomoni shundaki, lug‘at maqolachasida berilgan rus tilidagi izoh orqali frazeologizmning ma‘nosini aniq tushunib olish uchun imkon beradi.

Keyingi yillarda frazeologizmlarni o‘rganish borasida o‘zbek tilshunosligida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda va bu masalada ko‘pgina yutuqlarga erishildi. Frazeologizmlar tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘pgina doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, monografiyalar tayyorlandi, o‘nlab maqolalar va

⁶⁵ Imyaminova Sh.S. Frazeografiya leksikografiyaning bir tarmog‘i sifatida. O‘zMU, 2012.

o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi. O‘zbek tilshunosligida ilk bor bu termin tilshunoslikda M.E.Umarxo‘jev tomonidan o‘tgan asrning 70-yillarida qo‘llanilgan. M.I.Umarxo‘jayev ikki tilli frazeologik lug‘at yaratgan va bu kabi lug‘atlarni tuzishda asosiy e‘tibor ekvivalent munosabatlarini tanlash deb baholaydi va olimning tadqiq qilishicha frazeologik lug‘atlar quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. Frazeografik materialni tashkil qilish metodi asosida:

- a) izohli;
- b) ideografik lug‘atlar.

Bunday lug‘atlarda frazeografik materiallar alfavit tartibida joylashtiriladi va frazeologik birliklar quyidagi prinsiplar asosida lug‘atdan joy oladi:

- a) birinchi komponentga asosan;
- b) semantik jihatdan asosiy komponentga ko‘ra;
- c) grammatik jihatdan asosiy komponentga ko‘ra.

2. Frazeologizmlarni tashqi paradigmatik aloqalarining tipiga ko‘ra:

- a) frazeologik antonimlar lug‘ati;
- b) frazeologik omonimlar lug‘ati;
- c) frazeologik sinonimlar lug‘ati.

3. Frazeologik lug‘atlarni tuzishda qo‘llaniladigan tillarga ko‘ra:

- a) bir tilli;
- b) ikki tilli;
- c) ko‘p tilli.

4. Frazeologik materialni tanlab olish prinsipiga ko‘ra lug‘atlarning quyidagi turlariga ko‘ra:

- a) oddiy frazeologik lug‘at;
- b) maxsus frazeologik lug‘at (fe‘lli frazeologizmlar, frazeologizm-efvemizmlar lug‘ati, maqol va matallar lug‘ati, juft so‘zlar lug‘ati va boshqalar).

5. Frazeologik lug‘atlarning qo‘llanilish sohasiga ko‘ra:

- a) maktab o‘quvchilari uchun;

b) filologik fakultet talabalari va umumiy filologlar uchun;

c) ommabop.

6. Frazeologik lugʻatlarda asosiy eʼtibor qaratiladigan frazeologik birliklarning parametrlariga koʻra:

a) oddiy izohli;

b) etimologik va kulturologik lugʻatlar;

c) okkozinal variantli lugʻatlar.

Mazkur prinsiplardan kelib chiqib M.I.Umarxoʻjayevning 1972-yili Moskvada himoya qilingan “Принципы составления многоязычного фразеологического словаря (на материалах немецкого, русского и узбекского языков) nomli nomzodlik dissertatsiyasida nemis tili frazeologik iboralarini oʻzbek va rus tillariga tarjima qilish yoʻllari ishlab chiqildi. Bular quyidagilardir:

1. Toʻla ekvivalentlikka ega frazeologizmlar. Bunda nemis tili frazeologizmlari bilan rus va oʻzbek tili iboralarini bir xil shakl bir xil leksik tarkib, bir xil obraz, bir xil frazeologik maʼno va bir xil stilistik jiloga ega.

2. Qisman ekvivalent frazeologizmlar. Olmon tili frazeologizmiga maʼnosi, stilistik boʻyogʻi, obrazlilik jihatidan yaqin, lekin baʼzan leksik tarkibi va grammatik qurilishi jihatidan farq qiluvchi iboralar.

3. Koʻpchilik nemis tili frazeologizmlari analoglar yordami bilan tarjima qilinadi. Maʼnolari, stilistik boʻyoqlari yaqin iboralar boʻlishi bilan bir vaqtda ular tarkibida leksik xilma-xillik mavjud.

Bundan tashqari, M.Sodiqova tomonidan 1994-yilda ikki tilli “Qisqacha ruscha-oʻzbekcha barqaror iboralar lugʻati” yaratilgan. Shuningdek, boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun izohli hamda rasmlardan iborat boʻlgan lugʻatlar yaratilgan.

Oʻzbek frazeografiyasida, asosan, bir tilli, izohli, frazeologik lugʻatlar yaratilgan. Bu ishning salmoqli qismini Sh.Rahmatullayev boshlab bergan. Olim 1992-yilda “Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati”ni yaratdi. Ushbu lugʻatda hozirgi oʻzbek tilidagi mingdan ziyod frazeologizmlarga semantik, grammatik va qisman nutqiy izohlar

berib o‘tilgan. Lug‘at alfavit tartibida berilgan bo‘lib, unda bevosita frazeologik birliklar (barcha variantlari bilan) kiritilgan. Izohlar tayanch variant ostida berilib, notayanch variantlar havola maqolachasi sifatida o‘rin olgan.

Mazkur lug‘at frazeologik hodisalarni sistemada olib, o‘zaro qiyoslab o‘rganish imkoniyatini beradi.

Lug‘at oxiriga unga kiritilgan iboralarning (barcha iboralarning) so‘z komponentlari ko‘rsatkichi ilova qilingan⁶⁶.

Sh.Rahmatullayev bu lug‘atga umumxalqda ko‘p qo‘llaniladigan iboralarni va ularning variantlarini kiritgan. Individual muallif iboralar kiritilmagan.

Bundan tashqari Mahmud Sattorning “O‘zbekning so‘zi qiziq”, B.Yo‘ldoshev, K.Bozorboyevlar hammuallifligidagi “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (1998), Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning 2001-yilda yaratgan “Ma‘nolar maxzani” nomli kitoblari frazeografiya sohasining boyishiga xizmat qilgan.

Yana shuni aytib o‘tish lozimki, o‘zbek tilining 2006-2008-yillarda qayta ishlangan 5 tomlik izohli lug‘atida ham iboralar va ularning ma‘nosi berilgan. Turg‘un birikmalar ular bosh so‘zga tuzilgan lug‘at maqolasi ichida, bosh so‘zning o‘ziga tuzilgan lug‘at maqolasi nihoyasiga etgach, yangi qatordan qora harflar bilan avval yasama so‘zlar, ularga tuzilgan lug‘at maqolalaridan so‘ng esa turg‘un birikmalar izohlanuvchi birlik sifatida berilgan. Demakki, ularning o‘ziga lug‘at maqolasi tuzilgan. Biroq mazkur kitobga kiritilgan iboralar grammatik jihatdan tavsifi berilmagan.

Yuqorida nimlari qayd etilgan lug‘atlardan tashqari yana boshqa bir qancha lug‘atlar yaratilgan bo‘lib, ushbu lug‘atlarda iboralar quyidagi ko‘rinishlarda berilgan:

Bosh so‘z mustaqil qo‘llanmay, biror so‘z bilan yoki turg‘un ibora tarkibida qo‘llanadigan bo‘lsa, uning ketidan ostin-ustun ikki nuqta (:) qo‘yilib, so‘ngra shu so‘z bilan beriladi.

Misol: LOM-MIM: lom-mim demaslik...

⁶⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – Б. 2.

NIL: _bo‘yoqchining nili...

Ajratib yoziladigan yasama so‘z va turg‘un birikmalar ham, asosan, yuqoridagi prinsipga, ya‘ni ot bo‘lsa. bosh kelishikda, fe‘lga teng bo‘lsa, -moq shaklida berildi. Lekin ba‘zi turg‘un birikmalar (frazeologik birikmalar) nutqda ma‘lum bir shakldagina qo‘llanadi va ular lug‘atda ham xuddi shu shaklida berildi. Masalan, *ilonning yog‘ini yalagan, yog‘ tushsa yalaguday, ilon po‘st tashlaydi* iboralari faqat shu shaklida qo‘llanadi va lug‘atda ham shu shaklda berildi. Misol:

Bosh so‘z ko‘p ma‘noli bo‘lsa, frazeologik iboralardan boshqa iboralar bosh so‘zning qaysi ma‘nosiga aloqador bo‘lsa, shu ma‘nosida (shu ma‘nosining izohi va unga berilgan misollardan so‘ng) berildi. Frazeologik ibora (iboralar) lug‘at maqolasi oxirida berildi. Misol:

BOSH₁. Tananing bo‘yindan yuqori qismi. Odamning boshi... Boshini olmoq...
Boshim kal, ko‘nglim nozik...

2. Aql, es... Boshiga kelmoq...

3. Eng oldingi, birinchi. (o‘rindagi)...

Bosh gap (tlsh.)... Bosh so‘z 1) ayn. so‘z boshi...; 2) izohli lug‘atda alifbo tartibida berilgan, unga lug‘at maqolasi tuziladigan muayyan so‘z...

Bosh olib ketmoq... Bir yoqadan bosh chiqarib...

1. Turg‘un iboralar shu ibora tarkibida albatta qatnashadigan (majburiy komponenti bo‘lgan), shu iboraning shakllanishida asosiy so‘z hisoblanuvchi so‘zga tuzilgan lug‘at maqolasida berildi. Masalan, “hamma bir yoqadan bosh chiqarsa” jumlasidan bir yoqadan bosh chiqarmoq ibora sifatida berildi va u bosh yoki yoqa so‘ziga tuzilgan lug‘at maqolasiga kiritildi (hamma so‘zi ibora tarkibiga kiritilmadi).

2. Bir so‘z yoki uning ma‘nolariga kiritiladigan bir tipdagi iboralar, maqol va matallar birdan ortiq bo‘lsa, alifbo tartibida berildi. Frazeologik iboralar ham alifbo tartibida berildi.

3. Turg'un iboralarning variantlari (tarkibiy qismida bo'ladigan o'zgarish) qavs ichida yoki so'zi bilan ko'rsatildi. Masalan, azob tortmoq (yoki chekmoq), ko'ngli (yoki fe'li) tor, ko'ngli joyiga (yoki o'rniga) tushmoq, ko'ngli oq (yoki oq ko'ngil)⁶⁷.

Mustaqillik barcha sohaning rivojlanishi, tadqiq qilinish imkonini berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, so'z yuritayotganimiz frazeografiya sohasida ham ko'plab ishlar qilindi, yangidan yangi lug'atlar shakllantirildi. Ayniqsa, 2017-yilda Baxtiyor Mengliyev, Mahbuba Xudoyberdiyeva, Oynisa Boymatovalar birgalikda maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan "O'zbek tili iboralarning o'quv izohli lug'ati"ning yaratilishi maktablarda frazeologizmlarni o'rganish uchun asosiy qo'llanma vazifasini bajarmoqda. Lug'atga iboralar alfavit tartibida joylashtirilgan bo'lib, unda 1000 ga yaqin iboralarning semantikasiga izoh berilgan.

Iboralar birdan ortiq variantga ega bo'lsa, ular ketma-ket vergul bilan ajratilgan holda berilib, so'ngra izohlandi:

Avra-astarini ag'dardi, avra-astarini qoqdi, avra-astari so'kildi, avra-astari qoqildi – barcha kirdikorlarini ochib tashladi.

Avj oldi, avjiga mindi, avjiga chiqdi – 1) rivojlandi 2) zo'raydi, kuchaydi.

Fe'llar o'quvchilarga qulaylik maqsadida asosan yaqin o'tgan zamon shaklida berildi:

Aqldan ozdi – jinni bo'ldi, telba bo'ldi, esi og'di

Aqli kirdi – 1) es- hushli bo'ldi; 2) angladi, tushundi

Aqli yetdi – idrok qildi, uqdi, bildi

Aqlini tanidi – es-hushli bo'ldi

Aqlini yedi – miyasi ishlamay qoldi, fikrlash qobiliyatini yo'qotdi

Aql-u hushini yo'qotdi – o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajaga yetdi

Agar ibora ko'p ma'noli bo'lsa, uning har bir ma'nosi arab raqami bilan raqamlangan tarzda berildi:

Bag'ri xun bo'ldi - 1)ziq bo'ldi 2)ruhan azoblandi

⁶⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, I том. – Тошкент, 2006. – Б. 12-13.

Baland keldi – 1) yengdi; 2) ustun keldi, g‘olib keldi

Barmog‘ini tishladi – 1) hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qoldi; 2) afsuslandi

Shakldosh iboralar alohida-alohida ravishda rim raqamlari bilan berildi:

Dunyodan o‘tdi I – yashab o‘tdi

Dunyodan o‘tdi II – qazo qildi, o‘ldi

Dong qotdi I – kutilmagan hodisaga duch kelib, karaxt bo‘lib qoldi

Dong qotdi II - hech narsani sezmaslik darajasida qattiq uxladi⁶⁸.

Mazkur lug‘at II tomlik Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanilgan holda tuzilgan.

Davlat tilining mavqeyini mustahkamlash, uning til xususiyatlarini namoyon etishda frazeologik lug‘atlar muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli so‘ngi yillarda frazeologizmlarni bir erga jamlab, yaxlit bir ilmiy asoslangan, mukammal frazeologik lug‘at ehtiyoji yuzaga keldi. 2022-yilda Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyevalar hamkorligida “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” yaratildi. Mazkur lug‘atdagi frazeologizmlarning izohi lug‘at adabiy til va shevalarda, mumtoz tarixiy manbalarda mavjud iboralar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, unga tadqiqotchilar uchun qulay bo‘lishi, frazemalar tuzilishi va ma‘nosidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini yaratish maqsadida tarixiy frazeologizmlar ham kiritilgan. Misollar XIV asrning 2-yarmiga oid “Muhabbatnoma”, “Gulistoni bit-turkiy”, “Suhayl va Guldursun”, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari asosida to‘plandi. Bu iboralarning ma‘lum qismi hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida qo‘llanadi⁶⁹. Bu lug‘atga Shavkat Rahmatullayevning 1992-yilda yaratgan “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” asos bo‘lib xizmat qilgan. Biroq bu lug‘atdagi eskirgan matnlar va lug‘aviy borliklar olib

⁶⁸ Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati (maktab o‘quvchilari uchun). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B.6.

⁶⁹ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 5.

tashlangan. Lug‘atning yana bir ahamiyatli jihatlardan biri, lug‘at mustaqillikdan keyingi yillarda yaratilgan badiiy asarlardagi namunalar bilan boyitilgan.

Ushbu lug‘atga qo‘shimcha ravishda 397 ta arxaik ibora, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006 – 2008), “O‘zbek frazeologiyasidan materiallar” (H.Berdiyev, R.Rasulov, B.Yo‘ldoshev; 1976–1983) qo‘llanmasi va shevalar asosida to‘plangan 1801 ta frazeologik birikma izoh kiritilgan⁷⁰.

Umuman, frazeografiya sohasi bir oz murakkab va mashaqqatli soha hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida bir tilli (izohli), ikki tilli frazeologik lug‘atlar yaratilgan bo‘lsa-da, jahon tilshunosligidan farqli o‘laroq ko‘p tilli frazeologik lug‘atlar hanuzgacha shakllantirilmagan. Bizningcha, bu kabi lug‘atlarni tuzish katta ahamiyatga ega. Chunki tilimizdagi frazeologizmlarni o‘zga tilga tarjima qilish jarayonida iboraning o‘zini so‘zma-so‘z tarjima qilinsa boshqa bir ma’no kelib chiqishi mumkin. Shu jihatdan agar ko‘p tilli frazeologik lug‘at yaratilsa tarjima qilish osonlashgan bo‘lar edi. Aminmizki, lug‘atshunoslikning alohida sohalaridan biri hisoblanuvchi frazeografiya fani bundan keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan yanada takomillashtirib boriladi.

3.2. Leksikografik manbalarda frazeologizmlarning talqini

Bugungi zamonaviy jamiyatda tillarni milliy-madaniy meros sifatida bilish, oliy qadriyat deya e’tirof etish, tilni har tomonlama va imkoniyatlar asosida ilmiy jihatdan tadqiq qilish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish, dars o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Til xalqning milliy merosini, ma’naviy va axloqiy an’analarini o‘zida aks ettirib, uni avloddan avlodga etkazib bermoqda.

⁷⁰ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 6.

Tilning rivojlanish jarayonida uning lug‘at tarkibi (leksikasi) boshqa sohalarga qaraganda tez, sezilarli, jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zgarishlar leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Leksikadagi taraqqiyot, o‘zgarishlar yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘lishi va ma’lum lug‘aviy birliklarning yo‘q bo‘lishi (iste’modan chiqishi), so‘zlarning yangi ma’nolar kasb etishi va ayrim ma’nolarning yo‘qolishi kabi hodisalardan iborat bo‘ladi⁷¹.

Ta’kidlanganidek, frazeologizmlar XX asrning 30-yillarida alohida mustaqil fan sifatida o‘rganila boshlangan bo‘lsa-da, uning lug‘atchilik sohasida tadqiq etilishi ancha avvalga borib taqaladi. Avval aytib o‘tilganidek, dastlab frazemalar lug‘atlarda keltirilib o‘rganilgan. Xususan, turkiy tillar haqidagi birinchi qomusiy lug‘at, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida frazeologik birliklarga misollar berilgan. “Devon” turkiy tilshunoslikda leksikografiya sohasidagi ilk namuna hisoblanadi. M.Qoshg‘ariy XI asrda lug‘at va uning nazariyasi haqida arab tilshunosligi prinsiplaridan foydalanib, ilmiy ma’lumotlar yozib qoldirgan. Bu nazariya bevosita amaliyot bilan uyg‘unlashgan holda asarda o‘z aksini topdi. Olim ushbu asari bilan turkiy leksikografiyaga asos soldi va bu sohani yuqori bosqichga olib chiqdi⁷². Mazkur asarda ham frazeologizmlar keltirilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligining semantikasi hozirgi tilimizdagi iboralar bilan aynan o‘xshash ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Misol uchun, *“bo‘yin tovlamoq”* – *amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishni bajarishdan bosh tortmoq*, iborasi Mahmud Koshg‘ariy asarida *“arquqlandi”* [انحنى] tarzida qo‘llanilgan. E’tiborlisi shundaki, M.Koshg‘ariy “Devonu lug‘oti-turk” asarida frazeologizmlarni varianti bilan birga qo‘llagan holda yozib qoldirgan. Yuqoridagi *arquqlandi* iborasini – *“yor arquqlandi”* – odam ishni qabul qilishdan bosh tortdi (*arquqlanmoq, arquqlanar*) kabi ishlatilgan.

⁷¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, I том. – Тошкент, 2006. – Б.5.

⁷² Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лекцикографик хусусиятлари. Фил.фан.б.фалс.док.дис. ... – Термиз, 2021. – 24.

“Esnardi” [تثاوب] – yalqovlik qildi, bo‘yni yor bermadi. Yor esnardi – odam ishga bo‘yni yor bermadi (*esnarar, esnarmak*).

“Teshik” [فتحة]– *och ko‘z – qorni to‘yadi-yu, ko‘zi to‘ymaydi har narsaga ortiqcha hirs qo‘ygan.*

“Ortushdi” [زادت] – *pardalashdi* – yashirishdi, qilingan aybni yashirmoq, bekitmoq. Olar bu ishig‘ ortushdi - ular bu ishni pardaladilar. Har bir ishni yashirish uchun birovga yordam qilgan kishiga ham shunday deyiladi (*ortushur, ortushmak*)⁷³.

“Ang‘ardi” [أنجاردى] – *ont, qasam ichmoq-* o‘z fikr-qarorini muqaddas, qadrli narsani tilga olib qat‘iy qaror qilmoq. Ol ani ang‘ardi- u unga ond, qasam ichirdi (*andg‘arur, andg‘armak*).

“Qirg‘ashdi” [تحطمت] *ko‘z qirini solishdi.* Olar ikki qirg‘ashdi- ular ikkisi bir-biriga ko‘z qirini solishdi (*Qirg‘ashur, qirg‘ashmoq*).

“Kektashdi” [غضبوا] *kek saqlashdi, xusumat qilishdi.* Ol ikki kektashdi-u ikkovi kek saqlashdi (*kektashur, kektashmak*).

“Upaldi” [يضرب] *ish upaldi* – ish o‘z holiga tashlab qo‘yildi, e‘tibor berilmadi (*upalur, upalmaq*).

“Sag‘ko‘nu” [شكرًا لك] – ko‘nglida kiri yo‘q, oq ko‘ngil odam.

“Burbadi” [بوربادى] – *er eshig‘ burbadi* – payiga tushmadi, odam ishga beparvolik qildi.

“O‘kundi” [قراءته]– *bosh egmoq-* bo‘ysinmoq, itoat etmoq. Ol mena o‘kundi-u menga hurmat yuzasidan bosh egdi (*o‘kunar, o‘kunmak*). She’rda shunday kelgan:

O‘kunup mena izladi

Ko‘zim jashin jamladi

Bag‘rim bashin esladi

Elkin bo‘lur ul kechar

Seviklisining kechasi uyga kelish orzusini ta’riflab aytadi:

⁷³ Кошғарий. Девону луғотит-турк. II том. – Тошкент, 1960. – Б. 234.

U meni qaytadan tiriltirdi

Menga *ta'zim qilib* ishorat qildi.

Uni ko'rish orzusi bn yaralangan ko'zim shifo topdi,

Dilim yarasi sog'aydi, u musofir edi,

O'z yo'liga ketdi⁷⁴.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham qo'llaniladigan bu kabi frazeologik birliklar shakliy jihatdan turlicha bo'lsa-da, ma'no tomondan hanuzgacha qo'llanilib kelishining guvohi bo'lamiz. E'tiborlisi shundaki, Mahmud Koshg'ariy "Devon" ning lug'at qismidagi har bir so'z yoki so'z birikmasiga bergan izohlariga gap tuzib misollar keltirish orqali dalillaydi. To'g'ri, "Devon"da keltirilgan frazemalar kamchilikni tashkil etadi, chunki asar yozilgan davrda iboralar turg'un birikma sifatida emas, oddiy bir so'z yoki so'z birikmasi sifatida yozib qoldirilgan.

"Devonu log'otit-turk" asaridan so'ng bir qancha leksikografik asarlar yaratildi. Misol uchun, "At-tuhfat uz-zakiyatu fil lug'at it-turkiya" (Turkiy til haqida noyob tuhfa), "Abushqa", "Muhokamat ul-lug'atayn" (Ikki til muhokamasi), "Sangloh", "Abushqa" kabi leksikografik lug'atlarda ko'pgina xalq turmush tarzini, an'ana va qadriyatlarini aks ettiruvchi qimmatli manbalar mavjud. Bu manbalar orqali frazemalarni nafaqat sinxron usul orqali, balki diaxron yo'l orqali ham o'rganish, turg'un birikmalarni, maqol, matallarni yig'ish, muayyan guruhlarga bo'lib, tilni sestemalashtirish imkonini berdi. Chunonchi, XIII va XVIII asrlarda yaratilgan eski o'zbek lug'atlarida iboralarga ayrim namunalar berib o'tilgan.

Xususan, 1759-60-yillarda yaratilgan Mehdixonning "Sangloh" lug'atida ham ayrim frazeologik birliklarga namuna berilgan. Mirzo Mehdixonning "Sangloh" (ma'nosi "toshloq yer") lug'ati ham arab leksikografiyasi asosida yaratilgan, an'anaviy holda mumtoz klassik adabiyotdagi ijodkorlar: Lutfiy, Mir Haydar, Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur ijodida qo'llangan, ma'nosini topish, tushunish qiyin

⁷⁴ Кошғарий. Девону луғотит-турк. II том. – Тошкент, 1960. – Б. 93.

bo‘lgan leksemalarning izohiga e’tibor qaratilgan⁷⁵ *“so‘nggi uyqu”, “qatig‘ kuzluq”* kabi frazeologizmlar keltiriladi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida A.Starcheskiyning *“Sputnik russkogo cheloveka v Sredney Azii”* (1878), V.I.Nalivkin va M.I.Nalivkinaning *“Руководство практическому изучению сартовского языка”* va boshqa lug‘atlarida *“ibo kilmak”, “badjo kalturmak”, “bino kilmak”, “tanaul kilmak”, “xazar kilmak”, “xatir djam bulmak”, “raxm dil”, “kalyam tarash”, “muboryakbod etmak”, “mulaxiza kilmak”, “djuma namaz”* kabi namunalar keltiriladi⁷⁶.

“Abushqa” asari yana bir Alisher Navoiy asarlariga lug‘at ko‘rinishida yozilgan qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Lug‘atning ilk bosh so‘zi *“qariya, kekxa”* ma’nosidagi *abušqa* bilan boshlangani uchun, lug‘atga ham shu ot berib ketilgan⁷⁷ Mazkur asarni egasi noma’lum, kim yozib qoldirganligi haqida ma’lumotlar mavjud emas.

Unda yuzlendi – yuz tutmoq,

ilmey – ko‘ziga ilmaslik, nazar – pisand qilmaslik,

azitkan, azzikan – yol azan – yo‘ldan ozgan ⁷⁸ frazeologizmlari qo‘llanilgan.

O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, XI -XIX asr boshlarida yaratilgan lug‘atlardan *“At-tuhfa”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Kelurnoma”* kabi manbalarda frazeologik birliklar topilmadi. Buning sababi, ehtimol, bu davrda frazeologizmlar hali yetarlicha tadqiq etilmaganligidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi, fan va texnika shiddat bilan rivojlanayotgan bir zamonda barcha sohalar singari leksikografiya borasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Frazeologik birliklarga oid turli xil lug‘atlar shakllantirildi. XV asr va XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrdagi lug‘atchilikni, asosan, Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar tashkil etadi: *Tole’ Imoniy*

⁷⁵ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.б.фалс.док.дис. ... – Термиз, 2021. – В. 34.

⁷⁶ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент: Наврўз, 2019. – Б.28.

⁷⁷ Содиков Қ. Тарихий лексикография. – Тошкент, 2013. – Б. 56.

⁷⁸ Izoh: Ushbu lug‘atlardan olingan so‘zlar qadimgi turkiy va eski o‘zbek adabiy tilida yozilgan, ularni hozirgi o‘zbek adabiy tilida yozishning imkoni bo‘lmadi. Shu sababli lotin yozuvida berildi.

Hiraviyning “Badoe’ ul-lug‘at” (1405), “Abushqa” (XVI asr), Muhammad Mahdiyxonning eski o‘zbekcha-forscha “Sangloh” (1748), YA‘qub CHingiyning “Kelurnoma” va Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”, Muhammad Rizo Xoksoning “Muntaxab ul-lug‘ot” va “Zubd ul-lug‘ot”, Ishoqxon Ibratning “Lug‘ati sita al-sina” kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin⁷⁹. Biroq bu manbalarda turg‘un birikmalar, jumladan frazeologizmlar hali ilmiy tadqiq etilmagan, faqat amaliy jihatdangina qo‘llanilgan.

Bobga doir xulosalar

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Ular alohida til birligi sifatida ilmiy o‘rganilmoqda, grammatik tabiati, stilistik imkoniyatlari, gapdagi sintaktik vazifasi va yana boshqa tomonlari haqida katta ilmiy ishlar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqildi, frazeologik izohli lug‘atlar yaratildi. Shubhasiz, bu kabi tadqiqotlar frazeologiyaning alohida til birligi bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, leksikografik manbalar frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qilish uchun samarali turtki bo‘ldi. Frazeologizmlarga oid turli xil lug‘atlar yaratildi.

Ushbu bobda ularni o‘rganish, tahlil qilish, qiyoslash, frazeologik birliklarning leksikografik lug‘atlardagi o‘rnini tadqiq qilish orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

Leksikologiya yo‘nalishi kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu narsa frazeografiya sohasining yaxshi o‘rganilishiga sezilarli ta‘sir etdi. Frazeologik lug‘atlarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ular turli xil prinsiplar asosida guruhlariga bo‘lib o‘rganiladi. Frazeologizmlarni guruhlariga bo‘lib o‘rganish ularni oson qidirib topish, tadqiq qilish imkonini beradi.

Yana, shuningdek, mazkur bobda yana frazeologik birliklarning lug‘atlardagi joylashish o‘rni haqida to‘xtab o‘tilgan bo‘lib, frazemalarning lug‘atlarda aks etishi

⁷⁹ Boynazarov Z. Tarixiy-qomusiy manbalarda ifodalangan olamning lisoniy manzarasi va uning madaniyat tarixini o‘rganishdagi o‘rni (Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” asari misolida) // Academic Journal of History and Idea ISSN: 2148-2292. Dergipark.org.tr. – Toshkent, 2019. – B.2147.

tadqiq qilinishi natijasida, leksikografik lugʻatlarda berilgan iboralarning qamrab olinish darajasini bilib olish va oʻrganishni osonlashtiradi.

Ishning leksikografik manbalarda frazeologizmlarning talqini qismida frazeologizmlarni diaxron jihatdan semanteka oʻrganish, yana bu iboralarning variantlarini ham bilib olish mumkin boʻladi. Qolaversa, “Devonu lugʻotit turk” asarida berilgan iboralarni oʻrganish orqali XI asrda yaratilgan lugʻatlarda ham frazeologizmlar, garchi shu nom ostida berilmagan boʻlsa- da, qoʻllanilganligini koʻrish mumkin.

Frazeologizmlarni eski manbalarda tadqiq qilish jarayonida va natijasida ularning mohiyati yanada toʻlaroq ochiladi va amaliy ahamiyati oshib boradi. Frazeologizmlar u yoki bu xalqning milliy qadriyatlarini, oʻlis tarixini, oʻtmishini, urf-odatlarini, mushtarak manzillarini saqlab qolishida alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi tobora rivojlangan bir zamonda tilshunoslar oldida muhim masalalar talaygina. Frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash, frazeografiya sohasini rivojlantirish uchun faqatgina zamonaviy leksikografik manbalarni emas, qadimgi manbalarni ham oʻrganib, tadqiq qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zero, bu kabi tadqiqotlar leksikografiya sohasini yanada toʻlaroq tushunish, anglab etish imkonini beradi.

UMUMIY XULOSA

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasining kirib kelganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, lekin bu yo‘nalishda ko‘pgina tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, hozirgi paytda frazeologiya alohida til birligi sifatida ilmiy o‘rganilmoqda, ularning o‘ziga xosligi va xususiyatlarini kengroq oydinlashtirish uchun ushbu magistrlik ishimizda, dastlab, frazeologiya sohasining jahon va o‘zbek tilshunosligida tadqiq qilinishini yuzasidan ma’lumotlar berilgan.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida, frazeologiyaning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan, alohida soha bo‘lib rivojlanishida tadqiqot ishlarini olib borgan olimlar jahon olimlaridan: Sharl Balli, Ferdinand de Sossyur, V.V.Vinogradov, Y.D.Polivanov, A.V.Kunin, M.V. Lomonosov, A.I.Smirnitskiy, N.M.Shanskiy, B.A.Larin, o‘zbek olimlaridan: Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, G‘.Salomov, U.Rashidova, Sh.Usmanova, M.Umarxojayev, Sh.Almamatovalarning katta xizmati bor ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar, tahlil va tadqiqotlar natijasida bugungi kunga kelib frazeologiya sohasida bajarilgan ishlar, olib borilgan tadqiqotlar shuni anglatadiki, frazeologiya ham tilshunoslikning boshqa bo‘limlari kabi dolzarb va muhim masalalardan biri ekanligini, bu sohada olimlarimiz ko‘pgina ishlar bajarganligini va hanuzgacha tadqiqot ishlari davom etayotganligi aniqladik.

Umuman olganda, frazeologiya sohasini o‘rganish, tadqiq qilish, turg‘un birikmalarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Ular orqali nafaqat, o‘z tilimizning so‘z boyligini, balki boshqa tillarni ham tushunish mumkin bo‘ladi.

Frazeologizmlarda xalqning buguni va ertasi, turmush tarzi, madaniyati va ma’naviyati, qadriyatlarini namoyon bo‘ladi. Frazeologik birliklarni yaxshi tushunish orqali turli millat va elatlar o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Yana shuni aytib o‘tish mumkinki, frazemalarning semantikasini yaxshi tushungan kitobxon badiiy asar o‘qish jarayonida ham asarning mazmun-mohiyatini to‘laqonli tushunishi, ularda aks etgan obrazlarni yaxshi ilg‘ay olishi mumkin.

Frazeologizmlarni o‘rganishda ularning barcha imkoniyatlariga e‘tibor qaratdik. Jumladan, frazeologizmalardagi leksik variantlanish hodisasida biror bir iboraning variantlarini bilib olsak, uni turli o‘rinlarda variantlari bilan almashtirib qo‘llay olamiz. Xususan, birgina “ko‘ngil” leksemasi bilan bog‘liq frazeologizmlarning 40 dan ortiq variantlari bor ekanligini ko‘rib chiqdik.

Frazeologizmlarning, avvalo, ma‘no qirralarini bilib olishimiz katta ahamiyatga ega. Chunki ular tarkibidagi komponentlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki so‘zma-so‘z ma‘no anglatmaydi. Ularni yaxlit bir holatda tushunsakgina ibora anglatayotgan ifodani tushunib olishimiz mumkin. Shu sababli ham bugungi kunda frazeologizmlarni o‘rganishga qiziqish oshib bormoqda va bu borada ko‘plab ilmiy izlanishlar bajarilmoqda. Frazeologik birliklarning mazmun-mohiyatida narsa yoki voqeylikni atab kelish bilan birga, insonning aqliy, ruhiy, jismoniy tomonini, xalqning turmushi, hayotiy tajribasini namoyon qiluvchi ifoda mavjud.

Demak, frazeologizmlar shaxs va narsalarning grammatik-semantik, leksik, lingvokulturologik, psixologik, kommunikativ, emotsional holatini, voqelikka munosabatini obrazli tarzda namoyon qiluvchi til hodisasidir. Shunga asoslanib, olib borgan kuzatishlarimiz quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon beradi:

1. Bugungi kunda frazemalar tilning turli xil sathlarida tadqiq qilinmoqda va bu borada ko‘pgina amaliy yutuqlarga erishilyapti. Frazeologizmlarning paydo bo‘lish etimologiyasi, semantik xususiyatlari, gaplardagi sintaktik vazifasi, o‘rganish predmeti va obyekt, boshqa tillar bilan o‘zaro aloqasi, tarjima jarayonidagi o‘zgarishlar, grammatik qonuniyatlari hamda kommunikativ imkoniyatlarini o‘rganish, frazeologik darslik, lug‘atlar ishlab chiqishni yanada takomillashtirish dolzarb vazifalar sanaladi.

2. Frazelogizmlarda variantlanish keng tarqalgan, ular umumtildagi frazeologizmlar asosida yuzaga keladi. Umumxalq tilidagi frazeologizmlarni leksik, grammatik jihatdan o'zgarishi natijasida yangi tarkibli uning varianti hosil bo'ladi. Shu o'rinda, frazeologizmlarda variantlanish o'zbek tilida eng muhim, asosiy til hodisalaridan biridir. Negaki variantlanish tufayli tilning lug'at boyligi oshib boradi hamda yangi frazeologizmlarning shakllanish sestimasiga kiradi. Frazelogik variantlar ham ular yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan frazemalarning bir ko'rinishi bo'lib, semantik, sintaktik, uslubiy va vazifaviy tomoniga ko'ra aynan o'xshash bo'lsa-da, biroq leksik va grammatik tomonlarni ulardan bir oz farq qiladi. Variantlanishning bir qancha turlari mavjud bo'lib, asos frazeologizmga so'z qo'shish yoki so'z olib tashlash (elepsis), grammatik tarkibini o'zgartirish mumkin. Yana shuni ham qayd etib o'tish joizki, variantlanish hodisasiga uchragan asos frazeologizmning har qaysi leksik tarkibi o'zgarishi mumkin.

3. Frazelogizmlarning mazmun-mohiyatida odamlarning hayot tarzini, madaniyati va ma'naviyatini, o'tmishini va bugunini aks ettiruvchi, shaxsning ichki kechinmalarini, boy tarixiga ega xalqning hayotiy tajribasini aks ettiruvchi ifoda turadi. Shunga ko'ra milliy xarakterdagi frazeologizmlar xalqimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlari asosida shakllanadi. Shu sababli ham hozirgi davrda frazeologik tizimning milliy-madaniy o'ziga xosligi masalalari ko'pgina tilshunos olimlarimizning tadqiq obyektiga aylangan.

4. Raqamlar faqatgina matematika sohasida emas, boshqa ijtimoiy yo'nalishlarda ham faol qo'llaniladi. Sonlar ot bilan birikkandan so'ng u bilan birgalikda bir xil sintaktik birlik, gapning bir bo'lagini hosil qilishda ishtirok etadi. Raqamlar ishtirok etgan frazeologik birliklar insonning ichki hamda tashqi xususiyatlarini namoyon etadi.

5. Badiiy asarlarda ba'zi mualliflar asar yozish jarayonida nutq vaziyatiga mos, tilning qonun-qoidalariga asoslangan holda yangi frazeologizm yaratadi. Individual-avtor frazeologizmlarini mutlaqo yangi frazema deb bo'lmaydi. Ular umumxalq

tilidagi frazeologizmlarni o'zgartirish orqali hosil qilinadi. Muallif frazeologizmlar shaklni ixchamlashtirish, takomillashtirish asosida yangi strukturali frazeologik birlik shakllanadi. Olib borilgan tadqiqotlarimizga ko'ra yozuvchi Shuhrat ijodida bu kabi frazeologik qurilmalar ko'plab yaratilgan bo'lib, ularni asarlarida o'rnini bilan qo'llaganligining guvohi bo'lamiz. Biroq bu kabi turg'un birikmalar hech qaysi bir leksikografik manbaga kiritilmagan. Bizningcha, keyingi yillarda bu kabi frazeologizmlarni ham alohida lug'atini shakllantirilsa hamda ularni umumtildagi frazeologik varianti sifatida qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, ularning lug'at tarkibini boyitishga xizmat qiladi.

6. Olib borilgan izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilshunosligida leksikografiyaning shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Leksikografik manbalar tilimizni sof holda asrab, keyingi avlodlarga ham etkazish imkoniyatini beradi. O'rganishlar ko'rsatadiki, o'zbek lug'atshunosligida frazeologizmlar qadimgi manbalarda ham uchraydi. Ayniqsa, boshqa lug'atlarga qaraganda "Devonu lug'atit-turk" asarida frazeologik birliklarni ko'proq uchratdik. Lekin ular bu lug'atga aynan frazeologizm sifatida kiritilmagan.

Xulosa qilib shuni aytamizki, semantika frazeologizmlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli frazeologik ma'no va shakllanishini o'rganish dolzarbdir. Shuningdek, lug'atlar faqatgina ma'lum bir kasb egalari yoki ilmiy tadqiqot qiluvchilar uchun emas, barcha uchun birdek xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Milliy nashrlar:

2. Бердиёров Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар (биринчи қисм). – Самарқанд, 1976.

3. Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида “сеҳрли” рақамлар. – Т.: Фан, 1991. – 152 б.

4. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1999. – 200 б.

5. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент:1991. – 280 б.

6. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Наврўз, 2019. –260 б.

7. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультуроология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – Б. 27.

8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. — Тошкент: Университет, 1992. – 127 б.

9. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Ўзбекистон ССР ФАН нашриёти, 1966. – 389 б.

10. Содиқов Қ. Тарихий лексикография. – Тошкент, 2011. – 88 б.

11. Умарходжаев М.И. Основы фразеографии. – Ташкент: Фан, 1983. – 136 с.

12. Imyaminova Sh.S. Frazеografiya leksikografiyaning bir tarmog‘i sifatida. O‘zMU, 2012.

13. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili 11-sinf darslik. – Toshkent: 2018. – B. 77.

14. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (leksokologiya). – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. – 380 b.

15. Umarxo‘jaev M.E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. – Andijon: ADTPI, 2010. – 103 b.

16. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – 248 b.

2. Xorijiy nashrlar:

17. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва, 1977. – 267 с.

18. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз.– 2-е изд., перераб. – М.: Высш. шк., Дубна: Изд. центр “Феникс”, 1996. – 381 с.

19. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Изд. центр “Академия”, 2001. – 208 с.

20. Молотков А.М. Основы фразеологии русского языка. – Ленинград. Наука. Ленингр. отд-ние., 1977. – 283 с.

21. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка: Учеб. – 2-э изд. перераб. и доп. – М.: Высш. шк., 1987. – 288 с.

22. Смирнитский А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1956. – 269 с.

III. Lug‘atlar

23. Кошғарий “Девону луғотит-турк”. II том. – Тошкент, 1960. – 428 б.

24. Маҳкамов Н., Эрматов И. Тилшунослик терминлари изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2013. – 120 б.
25. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – 379 б.
26. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.
27. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилдли. II жилд. – М.: Рус тили нашриёти. 1981. – 715 б.
28. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2006-2007. II жилд. – 671 б.
29. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, I том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
30. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, II том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 459.
31. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, V том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
32. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2006-2007. I жилд. – 680 б.
33. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 158 б.
34. Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati (maktab o‘quvchilari uchun). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 57 b.
35. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – 636 b.

IV. Badiiy adabiyotlar

36. Анорбоев С. Оқсой шалолалари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриётн, 1958. – 194 б.
37. Аҳмад С. Уфқ. Трилогия. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриётн, 1976. – 688 б.
38. Исмоилий М. Фарғона тонг отгунча. (Биринчи китоб. Қаър гулдуриси). – Т.: Sharq, 2010. – 464 б.
39. Ойбек. Асарлар Ўн томлик. III том. Қутлуғ қон. Роман. Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, - Тошкент. 1969. – 190 б.
40. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. VII том. Олтин водийдан шабадалар. – Тошкент: Фан, 1976. – 544 б.
41. Ғулом Ғ. Шум бола. Қисса. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 164 б.
42. Қахҳор А. Қўшчинор чироқлари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1987. – 244 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

43. Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Фил.фан. номз. автореф. – Тошкент 2009. – 127 б.
44. Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н – Ташкент, 1991. – 52 с.
45. Фам Тхи Тхань Ха. Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов английского и вьетнамского языков. Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Казань, 2005. – 244 с.
46. Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.б.фалс.док.дис. ... – Термиз, 2021. – 137 б.
47. Ahmedov N. “Alpomish” dostonida frazeologizmlarning tematik va mifologik strukturasi. Fil.fan.b.fals.dok. ...dis. – Termiz, 2023. 136 b.

48. Bozorov H. O'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ... diss. – Termiz, 2023. – 164 b.

VI. Ilmiy to'plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

49. Boynazarov Z. Tarixiy-qomusiy manbalarda ifodalangan olamning lisoniy manzarasi va uning madaniyat tarixini o'rganishdagi o'rni (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari misolida) // Academic Journal of History and Idea ISSN: 2148-2292. Dergipark.org.tr. – Toshkent, 2019. – B.2147.

50. Numerology. The Use of Special Numbers in the Bible and Other Ancient Myths. Investigating Christianity. <https://sites.google.com/site/investigatingchristianity/home> (August. 2022).

51. Rakhmonova D. // Nemis va o'zbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi <http://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/757>.

52. Schimmel, Annemarie. The Mystery of Numbers. — New York / Oxford: Oxford University Press, 1993. – 314 P.

VII. Internet saytlari

53. <https://oz.sputniknews.uz/20230714/bir-pul-bel-boglab-yeng-shimarib-ozbekona-iboralar-manosini-bilasizmi-36793178.html>

54. <https://izoh.ibora>

55. <https://izoh.frazeologizm>.

56. <http://www.google.ru>.

57. <https://diss.natlib.uz>.

58. <http://www.umd.edu>.

59. <http://library//ziyonet.uz>.